G'azallarda ifoda etilgan ruhiy holatni faqatgina tasavvufiy mazmun bilan bog'lab qo'ysak, badiiy adabiyotning ta'sir doirasini ham, Navoiy dahosining ufqlarini ham toraytirib qo'ygan bo'lamiz. G'azaldagi mazmun ruhiy, falsafiy, ma'rifiy jihatlardan beqiyos kengdir. Undan turli did va darajadagi kitobxon estetik bahra oladi. Masalan, oddiy kitobxonni adabiyotning insonlik hayoti bilan bog'liq jihatlari ko'proq o'ziga jalb etadi. "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi g'azallarda ifoda etilgan ma'naviy daraja haqiqat yo'lining qaysidir bosqichiga ko'tarilgan so'fiyning holatigina emas, balki gumanist shaxsning, mutafakkirning, san'atkorning, yoshi bir joyga borgan oddiy insonning hayotning ma'lum bir bosqichiga kelib dunyo mohiyatini anglashi, inson umrining ma'nosini yanayam teranroq idrok etish holati ochib berilganligini ko'rish mumkin. Nilufar bargi ustidagi shabnam qanchalik amonat, qanchalik qiymatsiz bir narsa bo'lsa biz jonimizni, sog'ligimizni o'ylamay, o'tayotgan umrimizning qadriga etmay to'playdigan mol-amlokning qiymati ham, umuman, biz yashab turgan borliq dunyoning qiymati ham shunday bebaqo, ahamiyatsizdir. Hazrat Navoiy shu ma'noni anglatish uchun tashqi shakli, rangi bilan bir biriga o'xshash dur-yulduz-shabnam, feruza tosh-osmon-nilufar timsollarini bir-biriga parallel ravishda g'azallarida mohirona ifoda etgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va o'nlarcha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog'langan.

Alisher Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” asaridan o‘rin olgan “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallar maqola tahlili uchun manba hisoblanadi. Birgina g‘azal tahlili asosida butun bir insoniyat olamini anglash mumkin. Navoiy asarlari inson manfaatlariga, uning e‘tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she‘ri bu janrning o‘lmas namunalaridir.

**TADVIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu maqolada tavsiflash, mantiqiy umumlashtirish, kontekstual, analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 393-g‘azalida ham haqiqatga erishish yo‘lida mashaqqat chekib, ma‘lum bir bosqichga ko‘tarilgan solik – yo‘lchining ruhiy holati tasvirlangan. Uni oddiy kitobxon ma‘naviy komillikka intilayotgan shaxs ruhiyatida kechayotgan po‘rtanalar, uning ziddiyatli holati, ma‘naviy izlanishlari sifatida qabul qilishi ham mumkin. G‘azalni to‘liq keltiramiz:

*I bayt.* Bo‘lmish andoq munqati<sup>1</sup> ahli zamondin ulfatim  
Kim, o‘zum birla chiqishmas ham zamoni suhbatim.

*II bayt.* Ey xush ulkim, tutmish erdi vahsh<sup>2</sup> ila sahroda uns,  
Muhish<sup>3</sup> ahvoli mangakim, bor o‘zumdin vahshatim.

*III bayt.* Istaram qochmoq adam vodiysi<sup>4</sup>dinkim, kirgali  
Vomiqu Farhodu Majnun, bas, g‘ulu<sup>5</sup>dir xilvat<sup>6</sup>im.

*IV bayt.* To‘lg‘anurmen o‘zlukumdin chiqg‘ali, bukim erur  
Dard vodiysida sargardon quyundek hay‘at<sup>7</sup>im.

*V bayt.* Ey ajal, tan xirqa<sup>8</sup>sin kuydurki, bo‘lmish bas og‘ir  
Bu malomat o‘qlari birla tikilgan kisvat<sup>9</sup>im.

*VI bayt.* Ey falak, anjum<sup>10</sup> ushoq<sup>11</sup> toshin yig‘ib boshingg‘a ur,  
CHun fano<sup>12</sup> mayxonasi xisht<sup>13</sup>idin o‘ldi turbat<sup>14</sup>im.

*VII bayt.* Yetti ko‘kni ko‘k varaqlardek sovurg‘ay har taraf,  
Toqi minoyi<sup>15</sup> aro chirmalsa ohi hasratim.

*VIII bayt.* Qo‘y duru feruza bahsinkim, nujum<sup>16</sup>u charx<sup>17</sup>ni  
Nilufar bargi uza shabnamcha ko‘rmas himmatim.

*IX bayt.* La‘l<sup>18</sup>dek boshim osilsun g‘arqa<sup>19</sup>i xunob o‘lub,

<sup>1</sup> Munqati’ – ajralgan, kesilgan, uzilgan.

<sup>2</sup> Vahsh – vahshiy, yovvoyi aahayvon.

<sup>3</sup> Vuhush – qo‘rqinchli, dahshatli.

<sup>4</sup> Adam vodiysi – bu yerda: sahro.

<sup>5</sup> G‘uku – g‘alva, qiy-chuv, to‘polon (g‘uluning bir necha ma‘nosi bor, biz lug‘atdagi ma‘nolarning faqat mazkur matndagi ma‘noni berdik).

<sup>6</sup> Xilvat – xoli, kimsasiz joy.

<sup>7</sup> Hay‘at – shakl, ko‘rinish.

<sup>8</sup> Xirqa – shayx va darvishlarning maxsus ust kiyimi, janda/

<sup>9</sup> Kisvat – kiyim.

<sup>10</sup> Anjum – yulduzlar.

<sup>11</sup> Ushoq – mayda.

<sup>12</sup> Fano – 1. Yo‘ q bo‘lish, tugalish, o‘lish, baqosizlik. 2.O‘zlikni yo‘qotib, butun borliqdan kechib, ilohoyotga singish.

<sup>13</sup> Xisht – g‘isht.

<sup>14</sup> Turbat – qabr.

<sup>15</sup> Toqi minoyi – osmon.

<sup>16</sup> Nujum – yulduzlar.

<sup>17</sup> Charx – osmon.

<sup>18</sup> La‘l – qizil rangli qimmatbaho tosh.

<sup>19</sup> G‘arqa – cho‘mgan, botib ketgan.

La'l tikkan saltanat tojig'a bo'lsa rag'batim.

*X bayt.* Turfa ko'rkim, xalq kom<sup>20</sup>i birla umrum bo'ldi sarf,  
Turfaroq bukim birovga yoqmasi bir xidmat<sup>21</sup>im.

*XI bayt.* Ey Navoiy, ikki olamdin kechib toptim visol,  
Bu iki butxona<sup>22</sup>din ermish bu yo'lda ofatim.<sup>23</sup>

G'azal ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yozilgan. Paradigmasi quyidagicha: - Y - - / - Y - - / - Y - - / - Y - // - Y - - / - Y - - / - Y - - / - Y - .

Endi baytlar sharhiga o'tsak. G'azal g'alati ruhiy holat tasviridan boshlangan: lirik qahramon atrofida bilan munosabatni uzib qo'ygan; buning ustiga, qizig'i shundaki, hatto ba'zan o'zi o'ziga yoqmay, o'zi o'zini tushunolmay qoladi (*I bayt*).

Bu ajabto'vur holni tushuntirish uchun shoir afsonalarga murojaat qiladi: cho'lu biyobonlarda yovvoyi hayvonlar bilan do'st tutinganlarning ahvoli ham menikidan yaxshiroq, chunki ular vahshiy hayvonlar bilan ulfat bo'lib olganlar – ulardan qo'rqmasalar ham bo'ladi; mening ahvolimning dahshati shundaki, men o'zimdan qo'rqaman (*II bayt*). Sahroda hayvonlar bilan do'st tutinganlar kimlar? – bular, albatta, Sharq afsonasi qahramonlari, Haqning oshiq-lari, solik(yo'lchi)lar – Farhod, Majnun va Vomiqlardir. Shuning uchun ham shoir *III bayt*da tabiiy ravishda ana shu qahramonlarni esga oladi. Bu baytda “adam vodiysi” deganda sahro, cho'l nazarda tutilgan. Lirik qahramon odamlar bilan munosabatni uzib, bosh olib sahroga chiqib ketgan, ammo endi u erdan ham qochib ketishni hohlaydi, chunki sahro – odamlarni ko'rmay, uzlatda, yolg'izlikda yashash mumkin bo'lgan kimsasiz maskan vomiqu farhodu majnunlar kelgandan keyin g'ala-g'ovur, to'polonli joyga aylanib qolgan. “Kirgali” degan so'z mazkur baytda “kirgach, kirgandan keyin” degan mazmunda, chunki -gali qo'shimchasi eski o'zbek tilida -gach, -gandan keyin degan ma'nolarni bildiradi.

*IV bayt*da lirik qahramon ruhiyatidagi ziddiyatli holatning sababi beriladi: Haqni izlab yo'lga chiqqan solik, Haqqa intilgan orif o'zligidan – ikkilamchi “men”dan qutulishni, Alloh bilan birlashishni, vahdatni istaydi. Uning ruhiyatida kechayotgan g'alati-g'alati hollarning boisi shu. U ma'naviy komillikning muayyan bosqichiga ko'tarilgan, shuning uchun unga nafs tashvishlari bilan yashab yurgan kimsalarning ulfatchiligi ham, o'zidagi hali butkul yo'qolib ketmagan nafsoniy intilishlar ham, hatto o'sha davr adabiyotida ma'naviy komillikning timsoli sifatida shuhrat qozongan Vomiqu Farhodu Majnunlar bilan sahroda yonma-yon yashash ham malol keladi. To'lg'anish tufayli uning shakli shamoilyli endi odamsifat emas, u xuddi sargardon quyunning suvratiga o'xshaydi.

Aslida Haq vaslini izlash, oddiy qilib aytganda, ma'naviy barkamollikka intilish, Inson degan ulug' nomni xiralashtirib qo'yadigan noshoista illatlardan xalos bo'lish, qalbni ma'naviy g'uborlardan tozalash demak. Afsus, afsus! Ba'zan Haq nomidan gapirib, tasavvufdan, Navoiydan saboq berib, hasad, ig'vo, chaqimchilik, tamagirlik, o'g'rilik, g'arazgo'ylik, odamlarni bir-biriga gij-gijlash, fitna-fujur bilan shug'ullanib yurganlar ham yo'q emas. Undan ham yomonrog'i, Navoiyni, tasavvufni o'zlarining mayda maqsadlariga, soxta shuhrat orttirish uchun qalqon qilib yurganlar ham bor.

<sup>20</sup> Ком – тилак, истак, мақсад.

<sup>21</sup> Xidmat – xizmat.

<sup>22</sup> Butxona – butparastlar ibodatxonasi/

<sup>23</sup> Навоий А. Хазойин ул-маоний. Тўрт томлик. I том. Фаройиб ус-сифар. – Тошкент, Фан, 1959. – 411-б.

Ma'lumki, Haq vaslini izlab yo'lga chiqqan solik uchun tan – ortiqcha bir yukdir. Tanning talablari – nafsoniy talablar Haqiqatga etishga xalaqit beradi. SHuning uchun ham lirik qahramon tanni “malomat o'qlari bilan tikilgan kisvat(kiyim)” deb hisoblaydi; ajalga murojaat qilib, tan xirqasini kuydirishni iltijo qiladi. Chunki, tasavvufda “o'zlikdan chiqish” yo'llaridan biri – o'lim. **Y bayt**ning mazmuni, o'lim istash muddaosining izohi ana shunday.

Ajal, o'lim haqidagi baytdan keyin mantiqiy ravishda qabr timsoli ishlatilgan, motam manzarasi tasvirlangan bayt kelgan. **YI bayt**ning mazmuni shunday: ey osmon, yulduzlar – kichik-kichik toshlarni boshingga urib-urib yig'la, chunki fano mayxonasining g'ishtlaridan mening qabrimni barpo qildilar. Ammo bu baytda aytilgan o'lim jismoniy o'lim bo'lmay, o'zlikni yo'qotib, butun borliqdan kechib, ilohiyotga singish nazarda tutiladi. Osmonni yig'lashga da'vat etishdan muddao esa moddiy olam bir bandasidan ajralganlaigiga ishoradir (chunki osmon ham moddiy borliq).

**YII bayt** “yetti ko'k” iborasi bilan boshlanadi, bu ham o'ziga xos bir usul. Bu baytda Navoiy ma'naviy barkamolikka erishish yo'lida ulug' riyozatlar chekib borayotgan yo'lchining ohu fig'onlarini mubolag'ali tasvir qiladi: mening ohu hasratlarim agarda osmonga chirmasha, etti qavat ko'kni oddiy varaq kabi har tarafga sovurib tashlaydi. Haq vaslini izlash yo'lining mashaqqatlari ham, shu mashaqqatlarni uzluksiz chekib borayotgan solikning fig'onlari ham shu qadar ulug'dir!

Keyingi bayt ma'naviy kamolot pillapoyalaridan ko'tarilib borayotgan shaxsning moddiy dunyoga nazarini ifoda etadi. Ya'ni: dur va feruzalardan gapirma, qimmatbaho toshlar naryoqda tursin, mahobatli osmon bilan yulduzlarni ham nilufar bargi ustidagi shabnamchalik nazarga ilmayman (**YIII bayt**). Zero, bularning hammasi moddiy narsalardir.

Navoiyning o'zlari bu borada bizga ulug' ibrat ko'rsatganlar. U kishi qurgan imoratlar, ko'priklar, maktab va madrasalar, iste'dodlar tarbiyasi uchun, etim-esirlar uchun sarflagan mablag'lar ne-ne mansabu martabalarini ham, Qorunnikicha mol-davlatni ham, beqiyos as'asayu dabdabalarini ham gul bargidagi shabnamcha nazarga ilmagan buyuk bir shaxsning ma'naviy kamoloti darjasini ko'rsatmaydimi? Kimlardir tirnoqcha mansab ustida taloshib bir-birini kanaday eb yotgan, qushning tumshug'idagi donchalik rizqu mol deb eng insoniy a'mollarni oyoq osti qilayotgan bugungi kunlarda bu ibrat qanchalar ulug'!

Keyingi **IX bayt** solikning yanayam balandroq nazari, yuksakroq himmatidan bahs etadi: agar toju taxtni, podshohlikning qimmatbaho toshlar qadalgan tojini orzu qilsam, boshim qonlarga belanib, la'ldek osilsin! Mana shu baytni g'azalning kul'minatsiyasi deyish mumkin. Podshohlikka raddiya berib qasam ichish ilhomning jazavali onlarida aytilgan mubolag'a emas. Bu, tarix kitobining sahifalaridan bilamizki, yuksak darajadagi ma'rifatli shaxs Alisher Navoiyning hayot nizomi, faoliyatining dasturilamalidir. Vaziri kabirlikdan etak silkkan, Astrobod hokimligidan iste'fo bergan bir kishining aynan shunday yozishga to'la haqqi bor!

Baytdagi “la'ldek boshim osilsun” degan jumla o'quvchiga sal tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bu erda shoir la'ning sirg'a, tillaqosh, zebigardon singari zeb-ziynat sifatida osilib turishiga ishora qilgan.

**X bayt**da shoirning shunday bir chuqur hasrati, mahzun armoni aks etganki, bunday oddiy insoniy iztiroblar o'zini avliyo, hayotini afsona kabi tasavvur etganimiz odamlarga ham begona bo'lmaganligidan da'atan hayratga tushasan kishi. Bu qo'shmisra turli mubolag'alaru tashbehlar bilan zeb berilgan, so'fiyning oddiy odamlarga hamma vaqt ham tushunarli bo'lavermagan hollari tasvir etilgan o'ta shoirona baytlar ichida zaminiy ruhi, o'kinch to'la pafosi bilan ajralib turadi.

Qiziqi, deydi shoir, umrim xalqqa xizmat qilish yo'lida sarf bo'ldi. Chindan ham butun hayotini xalq xizmatiga bag'ishlash – har kun uchraydigan hodisa emas. Xalqparvarlikning soxta to'nini kiyib, o'z nafsini bajo keltirib, ayshini surib yurgan nokaslar qanchadan-qancha. Shunga ko'ra shoirning “Turfa ko'rkim (qiziqi)...” deyishga haqqi bor. Undan ham ajablanarlisi, deyiladi baytning 2-misrasida, o'z umrimni xalqqa bag'ishlaganligim ham kimlargadir yoqmaydi! Qanchalar alamli hol, qanchalar qalbgga yaqin misra! Halq esa bunday nochor-notavon kimsalar haqida “Borni ko'rolmaydi, yo'qqa berolmaydi” deb topib aytib qo'ygan. O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov hazratning mana shunday armonli-alamli misralaridan ta'sirlanib: “Navoiy mana shunday o'rinlarda yerga tushganlar” degandi obrazli tarzda.

Maqta' ham sof tasavvufiy ruhi bilan g'azalning 10-baytdan oldingi baytlariga hamohang. Mazmuni: ikki olamdan kechib Haqning vasliga etishtim, Alloh jamoliga noil bo'lish yo'lidagi asosiy to'siq (ofat) mana shu ikki dunyodir. Oddiy kitobxon hayron bo'lishi tabiiy: bandaning jamiyki toat-ibodatlarini, bu dunyodagi amallaridan muddao – u dunyoda jannatga erishish emasmi? Yo'q, so'fiy uchun jannat tamaida riyozat chekish – harom. U chekadigan jamiyki azob-uqubatlarning mukofoti – Allohning jamoli. So'fiyning yakkayu yagona orzusi – vasl, vahdat; u dunyo ham, bu dunyo ham uning matlabi bo'lishi mumkin emas. Haq talab uchun jannat ham Bu dunyo yoki do'zax kabi qiymatsiz bir joy. SHuning uchun ham shoir “iki butxona”, ya'ni ikki dunyo ham solik uchun ofatdir, deb yozadi. Ushbu g'azalda sof tasavvufiy ma'no hayotiy mazmun bilan aralash kelgan.

Maqola so'nggida g'azalda qo'llangan asosiy badiiy san'atlar jadvalini keltiramiz:

	Radd	Tazod	Tashbeh	Talmeh	Istitora	Ishtiyoq	Jonlan tirish	Tajnis	Mubolag'a	Ruju'
I	Zamon, zamon									
II		Ey xush ulkim, tutmish erdi vahsh ila sahroda uns, Muhish ahvoli mangakim, bor o'zumdin vahshatim.				Vahsh vahshat				
III		g'uludir xilvat		Vomiqu Farhodu Majnun	Adam vodiysi					
IV			quyundek hay'atim		Dard vodiysi				Dard vodiysida sargardon quyundek hay'atim.	
Y					Tan xirqasi, malomat o'qlari, malomat o'qlari birla tikilgan kisvat		Ey ajal, tan xirqasin kuydur			
YI					Anjum ushoq toshi, fano mayxonasi		Ey falak, anjum ushoq toshin yig'ib boshing'ga ur			

YII			Etti ko'k ko'k varaqlard ek		Toqi minoyi		Etti ko'kni ko'k varaqlardek sovurg'ay ... ohi hasratim.	Etti ko'k ko'k varaql ar dek	Etti ko'kni ko'k varaqlardek sovurg'ay har taraf, Toqi minoyi aro chirmalsa ohi hasratim	
YII I			Duru feruza - nujumu charx - nilufar bargi uza shabnam							
IX	La'l, la'l		La'ldek boshim							
X	Turfa, turfa									Turfa ko'rki m ... Turfar oq bukim ...
XI	Ikki, iki				Iki butxona. yo'l, ofat					

**XULOSA.** Ushbu g'azal sharhi Navoiyning bepoyon ijodiy dahosiga nisbatan ummondan bir tomchi ham emas. Har bir so'z, misra, baytning zohiriy va botiniy ma'no qirralarini, falsafiy va so'fiyona talqinlarini o'nlab variantlarda yaratish mumkin. Lekin hammasidan murod – ulug' ibrat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Навоий А. Хазойин ул-маоний. Тўрт томлик. I том. Фаройиб ус-сиғар. – Тошкент, Фан, 1959. – 411-б.
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009. – 448 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент, Шарқ, 1998. – 160 б.

## ONA SIYMOSI - MILLIY POTENSIAL ASOSI

**Muminova S.**

*Qarshi davlat universiteti  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iste'dodli shoira Nodira Afoqova she'rlarida ona siymosi talqini xususida bahs yuritiladi.

**Kalit so'z va iboralar:** inson, ona, kuch, mehr, dunyo, talqin, badiiyat

**Annotation:** This article examines the interpretation of the image of the mother in the poems of the talented poet Nodira Afokova.

**Keywords:** human, mother, strength, love, world, interpretation, artistry

**KIRISH.** Ayonki, she'riyat so'z san'atining boshqa turlaridan o'zining nafisligi, his-tuyg'ularga boyligi, obrazlilik, badiiy bo'yoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Hassos shoira Farida Afruz e'tiroficha: "Ko'klamni sog'ingan ma'sum quhlardek bezovta shoir yuragidagi bir parcha yog'du bu - she'rdir" [5.78]. Har bir ijod mahsulining o'z tabiati, xislat-xususiyati, kechinmalari, obrazlar jilvasi mavjud. Shu ma'noda, Nodira Afoqova she'rlarida inson ruhiy olami mukammal darajada inkishof etilganligini ko'ramiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Nozik did, noyob iste'dod sohibasi, yetuk olima Nodira Afoqova o'zining sermazmun she'rlari bilan milliy she'riyatimiz taraqqiyotiga muhosib hissa qo'shib kelmoqda. Shoira she'rlarida tuyg'ular tug'yoni mavj uradi, hissiyotlar aqlga bo'y bermaydi. Ayniqsa, uning ona siymosi talqiniga bag'ishlangan she'rlarini kuzatganimizda bunga yaqqol guvoh bo'lamiz. Maqola tahlilida Nodira Afoqovaning "Bahorning boshlanishi", "Bizning era" she'riy to'plamlaridagi ona siymosi ta'rifi bag'ishlangan she'rlari tahlilga tortilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu maqolada tavsiflash, mantiqiy umumlashtirish, kontekstual, analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Avvalo, potensial termini xususida fikrlarimizni oydinlashtirsak. Potensial terminining ikki xil ma'nosi mavjud. 1) **Potensial** (lotincha potentia — salohiyat) — biror vazifani hal etish va ko'zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, mablag', zaxiralar; ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlari.[1] 2) **Potensial** (fizikada) - fizik kuch maydoni (tortishish maydoni, elektr maydoni va shahrik.)ni va umuman, vektorlar orqali ifodalanadigan fizik kattaliklar maydonlarini xarakterlaydigan miqdor.[2] Jismning massa birligi (yoki zaryad birligi)ni kuch maydonining biror nuqtasidan boshqa nuqtasiga ko'chirganda maydonning bajargan ishiga teng. Shu ma'noda, har ikki tushunchada ham onaning sifati aks etgan. Darvoqe, hayotimiz mobaynida nimaiki qilsak, nimagaki erishgan bo'lsak onamiz tufayli, uning mehtalari evaziga erishganmiz. Ikkinchidan, fizika qonunlarida ta'kidlanidek, ona kuch maydoni sifatida farzandlarini o'ziga tortib turadi, bag'riga chorlayveradi, farzandlar ham umr bo'yi unga talpinib, sog'inib yashaydi. Ona ana shunday tortishish maydoni. Ona -buyuk xilqat. Uning zahmati, qalb qo'ri, mehr-muhabbati jonga ozuqa berishi kundek ayon haqiqat.

"Qur'oni karim" va hadisi shariflarda keluvchi qissa hamda oyatlar mazmuni onaga ehtirom ko'rsatish, hurmat qilish, asrab-avaylash, xizmatini og'rinmasdan bajarish haqidadir. Qur'oni karimning bir qancha suralarida Alloh bandalarini O'zining ibodatiga amr qilib, so'ngra

ota-onaga yaxshilik qilishga buyuradi. Jumladan, Qur’oni Karimning Ahqof surasining 15-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni qornida qiynalib ko’tarib yurgan va uni qiynalib tuqqandir” [3.508].

Onaning farzandiga bo’lgan mehribonligi haqida Oisha (r.a) onamizdan rivoyat qilingan hadisda shunday deyilgan: “Huzurimga bir kambag’al ayol ikki qizini ko’tarib keldi. Shunda unga uchta xurmo berdim. U har bir qiziga bittadan xurmo berdi. Bir dona xurmoni o’zi yemoqchi bo’lib, og’ziga ko’targanda, qizlari uni ham berishni so’rashdi. U o’zi yemoqchi bo’lgan xurmoni ikkiga bo’lib, qizlariga berdi. Uning bu ishi meni hayron qoldirdi. Uning qilganini Rasululloh (s.a.v) aytganimda, U Zot: “Bu sababli Alloh unga jannatni vojib qildi yoki uni do’zaxdan ozod qildi”, – dedilar” [4]. (Imom Muslim rivoyatlari). Ushbu hadisda ona farzandlari uchun har narsadan voz kecha olishi mumkinligi haqida so’z boradi. Darhaqiqat, faqat onalargina farzandu uchun shirin uyqusidan, huzur-halovatidan, kerak bo’lsa, aziz jonidan ham voz kecha oladi. Bunga insoniyat tarixida ko’plab misollar topiladi. Insonni faqat onasigina beta’ma sevadi, avaylaydi.

Qur’oni karim oyatlari, hadisi shariflarni o’qib, shuni anglashimiz mumkinki, ona mo’tabar, ulug’ zot. Onaning farzandga bo’lgan muhabbati qanchalik cheksiz bo’lsa, fazrandni ham ota-ona oldidagi qarzi va burchi shunchalik cheksizdir. Demak, diniy manbalarda ona ta’rifi berilib, unga qanday munosabatda bo’lish kerakligi uqtiriladi.

Shoira, avvalo, ona. Ona mo’tabar zot, ilohiy siymo. Nodira Afoqova she’rlarida onani ulug’lagan. Farzandga onadan yaqinroq inson yo’q. Bu tabiiy holat. Xalqimizda “Bir onang do’st, bir tanang” degan naql bor. Barchaning sirdoshi, g’amxo’ri uning onasi bo’ladi.

Ona, senga xat yozgim keldi,  
G’oyibona qilay deb gurung.  
Ona senga dard yozgim keldi,  
Garchand ko’pdir o’z tashvishlaring.

Lirik qahramon ruhiyatida milliylik aks etib turibdi. Undagi andisha, tortinish kabi tuyg’ular milliy o’zligimizga xos xislatlardandir. Farzand o’zining dard-iztiroblarini, qalb kechinmalarini bayon qilmoqchi. Bu dunyoda har kimning o’z dardi-tashvishlari bor. Odamlar o’rtasida bir-birini dardini tinglashga fursat topadiganlar kamayib bormoqda. Birgina ona zoti sabr-toqat bilan farzandlarini hech qanday manfaatsiz tinglay oladi, kerakli nasihatlar, mehr bera oladi.

Yuragimni o’rtar sog’inchlar  
Hayot dilga alam joylasa.  
Ba’zan boyi baland kimsalar  
Salomimga alik olmasa. [6. 33]

Inson hayotda yashar ekan, turli xil vaziyatlarda duch kelishi tabiiy. Shoira “Bo’yi baland kimsalar”ga duch kelib qalbi ozorlanganida, yaxshilik uchun uzatilgan qo’li havoda muallaq qolib ketganida, bot-bot munis onasining ma’sum nigohini, qaynoq muhabbatini qo’msaydi. O’tkinchi dunyoning ho-yu-havaslariga berilgan, erta bilan emas, bugun bilan yashayotgan ma’naviy dunyosi qashshoq kimsalardan nafratlanadi. Aynan mana shu o’rinda ijodkorning ma’naviy-ruhoni dunyosi ayonlashadi, shaxsiy individual mahorati namoyon bo’ladi. Onaning farzandiga bo’lgan cheksiz mehrini hech narsa bilan qiyoslash mumkin emas. Ona buyuk yaratuvchi, borligimizning sababchisidir. Hammamiz ham chorasiz qolsak, mahzun bo’lsak, onamizni qo’msaymiz, unga intilamiz, asliyatimizga qaytamiz. Insoniyatning asliyati onada mujassam

bo'ladi.

Dunyo bo'lib ko'rganmi dunyo  
 Buncha ma'yus, dilbar ayolni?  
 Jonlantirib qo'yganmikan yo  
 Bilmay qolib mahzun xayolni?  
 Eslaymanu, gullaydi ko'ksim,  
 Pari edi, guljamol edi.  
 Eslaganda Oy kuyar: aytsin,  
 Xayoldayin bir ayol edi. [6.62]

Shoiraning nazdida uning onasi "Pari edi, guljamol edi", dunyo uningdek dilbarni aslo ko'rmagan. Dunyo shoirlari ona haqida eng sara shohbaytlarni bitgan. Onaning o'limi qalblarni larzaga solishi tayin. Shoiraning isyonini tushunsa bo'ladi: "Yaratding-u ishq bilan, yana, Bu suvratni o'chirding nechun?" Onadan ayrilish nihoyatda musibatli. Abdulla Oripov yozganidek: "Ona ketsa, qulab tushsa arziydi osmon".

Shoira farzandlariga bag'ishlangan she'rlarida dunyodagi jamiki onalar misoli ular timsolida o'z orzu-umidlarining mujassamini ko'radi. O'zi ulgurmagani, erishmagan, yeta olmagan armonlarining ro'yobini ularda ko'rishni istaydi.

Siz osmon tarafdin kelgansiz uchib,  
 Oftobmi, oydadir sizning sarrishta.  
 Shunchalar ilohiy, shunchalar najib,  
 Qushning qanotidan hurkkan farishta. [7.37]

Mazkur misralar orqali ijodkor sof milliy kolotitni bera olgan. Bizning xalqimizda bola pokiza yaratiq sifatida qadrlanadi, u oilani birlashtiruvchi, yomonliklardan xoli zurriyod sifatida e'zozlanadi. Bola nozik farishta, uni asrash lozimligini misralarda shoira yaqqol tasvirlab bera olgan.

Shoira Nodira Afoqova ham farzandining bu dunyo sitamlariga duch kelmasligini onalik mehri bilan xohlaydi. Uning "Iltijo" nomli she'rida shunday misralar bor:

Silkitasan-qo'llaring bejon.  
 Yomg'ir aro boqasan ma'yus,  
 Ostonamga uyan xazon -  
 Buncha meni yaqin oldin, Kuz?  
 Gulga kirib borar tushlari  
 Qushdayin hur olisda bir qiz -  
 Menga o'xshar ko'zlari,  
 O'tma uning ko'chasidan, Kuz!

Kuz - xazon fasli sanaladi. Tabiat bilan inson umri orasida mutanosiblik mavjud. Bahor - yasharish fasli. Hazrat Navoiy ham inson umrini shartli ravishda to'rtga bo'lgan edi: "(tufuliyat (yoshlik) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) - 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuhuliyat (o'rta yoshlik) - 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha). Mana shu muddatda inson ma'naviy-ruhiy jihatdan turli darajada bo'ladi. Shoiraning iltijosida qizining baxti kamolini ko'rish orzusi mujassamlashgan.

Nodira Afoqovaning bisotida "Fitratjonning allasi" nomli o'g'liga atalgan she'ri mavjud. Erkka, ma'rifatga, Vatanga sodiqlikka, qadri balandlikka bo'lgan da'vat yangraydi.

Eng go'zal gullarni sen deb terayin,

Istasang, oyni-da olib berayin,  
 Bitta nim kulgingga jonim berayin,  
 Alla-yo, alla. [7. 32]

Ma'lumki, alla xalq og'zaki janrining mashhur janrlaridan biri. Alla kuylash jarayonida onalar farzandlariga baxt, rizq, umr, ezgulik, vatanga muhabbat tilaydilar. Alla tinglab katta bo'lgan bolaning ruhiyatiga ona yurtga, vatanga muhabbat degan oliy tushuncha singgan bo'ladi. Bola katta qilayotgan ayol cheksiz qudratga ega. Tunni kunga, kunni tunga ulab, uyqudan kechib mashaqqat chekib Bolani voyaga yetkazadi. Shuning uchun ona uchun farzand aziz dilband. Bolasi kulsa kuladi, yig'lasa yig'aydi:

Tush ko'rsang, anvoyi dunyolarni ko'r,  
 O'zidan ko'paygan hulvolarni ko'r,  
 Dunyo sog'ingan nek ro'yolarni ko'r,  
 Alla-yo, alla. [7.38]

Shoiraning "O'g'lim Fitratga" nomli yana bir she'rida o'g'ilning ulg'ayganligidan, balog'atga yetganida masrur onaning dil iqrorlari aks etgan:

Bilasan, ne hayotimga teng –  
 Bilasan, men men emas she'rsiz.  
 Sunbulada o't yoqsam bunda  
 Farg'onada ko'rindi tutun.  
 Baxt desam kam, arzimas juda,  
 Haqqing deyman, bo'lsin bus-butun.  
 Qush tilida so'ylaydi Fitrat.  
 Sensanu she'r-borim, naylay man?  
 Tanla, desa bir kuni qismat,  
 She'rlarimni yoqib tashlayman. [7.89]

Shoira uchun she'r hayotiga teng bo'lsa-da, agar tanlash kerak bo'lsa, albatta, o'g'lini tanlashini mardona aytmoqda. Ona doimo ona. Har qanday holatda ham u farzandini tanlaydi. Orzu-umidlarini, ho-yu havaslarini, shirin jonini, qiziqishlarini, hayotini farzandining baxti yo'lida nisor etishga tayyor. Ayol uchun farzandining baxtidan o'zga baxt yo'q. Bu fidoyilik onaga xos xislat. Shoira ona siymosini ana shunday yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi.

**XULOSA.** Umuman olganda, shoira Nodira Afoqova ijodida tasvirlangan ayol ruhiy olami insonlarni go'zallikni anglash, his etish, onani ardoqlash, insonni qadrlash, sevishga undaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: Munir, 2023. – Б. 508.
2. Нодира Афоқова. Баҳорнинг бошланиши. Бухоро – 1997.
3. Нодира Афоқова. Бизнинг эра. Тошкент: "Ижод-пресс", 2019.
4. Фариди Афрўз. Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Potensial\\_\(fizika\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Potensial_(fizika))

<https://sammuslim.uz/oz/islam/juma/06032020-y-jannat-onalar-oyogi-ostida.print=on>

## TILSHUNOSLIKDA LISONIY BIRLIKLARNING SINTAKTIK, SEMANTIK VA PRAGMATIK JIHLARI

**Daniyeva M. Dj.**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Maqolada lisoniy birliklarning sintaktik, semantik va pragmatik jihatlri borasida fikr yuritilgan, zero, lisoniy birliklarning bu uch tomonisiz aloqa vositasi bo'lgan til o'zining to'liq talqinini topa olmaydi. Muloqot doirasida yuzaga keladigan munosabatlar turli-tuman bo'lib, ma'lum axborot mazmuniga ega bo'ladi. Maqolada, Konnotatsiyaning pragmatik vositalar orqali ifodalanishini o'rganish matndagi leksik vositalar, orqali ifodalangan qo'shimcha axborotlarni, muallif tomonidan ko'zda tutilgan shamalarni, kinoyalarni yaxshiroq anglashga, tushunishga yordam beradi va bu ko'p jihatdan tinglovchining, kitobxonning yashirin ma'nolarni tushuna olish qobiliyatiga, dunyoqarashining kengligi va oldingi bilimlarining mavjudligiga bog'liqdir, degan xulosa ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** lisoniy birlik, konnotatsiya, sintaktika, semantika, pragmatika.

**Abstract.** The article discusses the syntactic, semantic, and pragmatic aspects of linguistic units, emphasizing that without these three dimensions, language, as a means of communication, cannot be fully interpreted. The relationships that emerge within the scope of communication are diverse and convey specific informational content. The study of how connotation is expressed through pragmatic means, as highlighted in the article, aids in better understanding the additional information conveyed through lexical tools in the text, as well as the hints and irony intended by the author. It concludes that this largely depends on the listener's or reader's ability to perceive hidden meanings, the breadth of their worldview, and the presence of prior knowledge.

**Keywords:** linguistic unit, connotation, syntax, semantics, pragmatics.

**KIRISH.** Axborotning to'g'ri tushunilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari, tinglovchining olam, jumla qo'llanayotgan ijtimoiy holat, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiyati haqidagi bilimi va boshqa bilimlarini ham qo'shish kerak bo'ladi. Axborotni tushunish jarayonida ushbu bilimlarning barchasi barobar xizmat qiladi. Shuning uchun, faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina, biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz. Ana shunday amaliy ehtiyoj natijasida semantika va pragmatika vujudga keldi. Lisoniy birliklarning bu uch tomonisiz aloqa vositasi bo'lgan til o'zining to'liq talqinini topa olmaydi. Demak, lisoniy birliklarning ham uch jihati mavjud: 1) sintaktika; 2) semantika; 3) pragmatika.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Lisoniy birliklarning til tizimida tutgan o'rnini aniqlash hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda va shu bilan bir qatorda tadqiqotchilar tomonidan ushbu birliklarining struktur tuzilishi, semantik xususiyatlari, pragmatik imkoniyatlari, konseptual strukturasi tahlili nihoyatda muhim vazifalardan ekanligi ta'kidlanmoqda [1; 2; 7; 9; 10].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Mazmuniy sintaksis ongda aks etgan obyektiv voqelik elementlarini, ya'ni propozitsiyaning sintaktik qurilmalar orqali qanday ifodalanganini o'rganadi. Boshqacha aytganda, mazmuni sintaksis qurilmalarning propozitsiya tomonini o'rganadi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davrida til birliklarining nutqda qo'llanilishining semantik jihatlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday masalalardan birini propozitsiya tushunchasida ko'ramiz, zotan, propozitsiya gapning mazmuniy asosini tashkil etuvchi omil bo'lib, u orqali obyektiv borliqdagi ayrim vaziyat yoki voqealar aks ettiriladi [5: 31].

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Sintaktika lisoniy birliklarning shakliy munosabatlarini, ya'ni lisoniy belgilar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Sintaktika sintaktik shakllar asosida ish ko'radi. Demak, sintaktika an'anaviy sintaksis — gap bo'laklari nomi bilan o'rganiladigan gapning sintaktik tizimiga tayanadi. Sintaktikaga muvofiq, har qanday sintaktik birlik nutqiy jarayonda turli variantlarda namoyon bo'luvchi umumlashgan mohiyat sifatida talqin qilinadi.

CH.Morris, semiotika asoschilaridan biri sifatida uni uchga bo'ladi:

1) semantika – belgining borliq obykti bilan munosabati haqidagi ta'limot; 2) sintaktika – belgining belgi bilan munosabati haqidagi ta'limot; 3) pragmatika – belgining so'zlovchi bilan munosabati haqidagi ta'limot [11: 62].

Propozitsiya gap shakllanishining asosida yotadi. Bu jihatdan uni gapning semantik mag'zini tashkil etuvchi invariant struktura sifatida tushunish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, gap propozitsiya asosida shakllanishidan dalolat beradi [3: 8]. Gap tuzilishi, ushbu gap orqali ifodalanayotgan borliq parchasi tuzilishi bilan solishtiriladi. Sintaksisning asosiy birligi – gap inson ongida aks etgan borliqdagi ayrim voqeani, borliq parchasini ifodalaydi: bola yig'layapti, o'rik gulladi. Gap bo'lagi esa borliqning ongda aks etgan alohida elementlarining shu vaziyatda qanday vazifa bajarayotganligini ko'rsatadi: qiz uyga kirdi (qiz – harakat subyekti, uyga – harakat o'rni, kirdi – harakatni ifodalaydi).

Dastlabki izohlarda ushbu uch soha yonma-yon joy olgan bo'lsa-da, Morris keyinchalik "pragmatika" tushunchasini qolgan ikki soha - sintaksis va semantikaga nisbatan ancha keng ekanligini qayd etdi. Pragmatikani semiotikaning boshqa qismlari (sintaksis va semantika)dan ustunroq pog'onaga joylashtirish va uni ko'p qirrali, lisoniy faoliyatni keng qamrovda o'rganuvchi soha sifatida talqin qilishda Morris mantiqshunos R.Karnapga [10] ergashgan. Bundan tashqari, semiotika va mantiq fanlarida qo'llanilayotgan "sintaksis" tushunchasini tilshunoslik sohasi bo'lgan sintaksis bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Bu atamalar aynan bir xil mazmunda qo'llanmaydilar [7: 3-12]. Ma'lumki, sintaksis til tizimining fonetika, morfologiya kabi sohalari bilan bir qatorda ajratiladigan sathini tashkil qiladi. Sintaksisning yoki sintaktikaning semiotik mazmuni o'zgacharoq, bu yerda u pragmatika va semantikaga qarama qarshi qo'yiladi, ular bilan qiyoslanadi [6: 44].

Lisoniy birlik ongda aks etgan borliq elementlarining o'zaro munosabatini ifodalaydi. Lisoniy birliklarning sintaktika va semantikasi bu birliklarning to'liq tavsifi uchun kamlik qiladi. Sintaktika va semantikaga pragmatika qo'shilgandagina, ular o'zining haqiqiy talqinini topadi. Masalan:

- All are working very hard. Hamma juda qattiq ishlamoqda.

Ushbu jumla orqali muayyan shaxslar va ularning muayyan zamon va makondagi holati propozitsiyasi ifodalangan. Lekin, jumla orqali ifodalangan propozitsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun bugina kifoya qilmaydi. Buning uchun so'zlashuvchilar juda qattiq ishlayotgan ma'lum guruhlar haqida va bu guruhlarining holati ro'y berayotgan ma'lum makon va zamon haqida umumiy bilimga ega bo'lishlari lozim bo'ladi. Chunki dunyodagi barcha odamlar bir vaqtning o'zida juda qattiq ishlashi mumkin emas. Xuddi shuningdek, dunyodagi barcha odamlar bir joyning o'zida ham juda qattiq ishlashi mumkin emas. Demak, yuqoridagi jumla aniq shaxslar,

aniq makon va zamon bilan bog'langan bo'lishi kerak. Jumla orqali ifodalanayotgan propozitsiyaning nutq vaziyati bilan ana shunday munosabatini o'rganish jumlaning pragmatik jihatini tashkil qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda "Pragmalingvistika" mustahkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanar ekan, shu narsani qayd etib o'tish joizki, tilshunoslik bilishning boshqa g'oyalari va amallari orqali empirik tahlilni boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. XX asrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lingvistik tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri, albatta, pragmalingvistikadir. Sh.Safarov "Pragmalingvistika" asarida "Pragmatika nisbatan yangi soha hisoblanib, unda tilning undan foydalanuvchilariga bo'lgan munosabati o'rganiladi. Muloqot jarayonida so'zlovchi o'z fikrini bayon qilishda uning oldida ma'lum maqsad turadi. Bu maqsad so'zlovchini tinglovchi tushunishi, anglashidan iboratdir. Lison qanchalik ijtimoiy, so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo'lsa, nutq ham ular uchun shunchalik umumiy, majburiy va ijtimoiydir", - deb ta'kidlaydi [6: 10]. Muloqot doirasida yuzaga keladigan munosabatlar turli-tuman bo'lib, ma'lum axborot mazmuniga ega bo'ladi. Nazariy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, "Mazmun yoki fikr bayon qilishning har qanday usuli bu turlicha kontekstdir, shuningdek, verbal yoki noverbal vositalar orqali fikr ifodalash usuli tushunchasi ostida ham kontekst ma'nosi anglashiladi" [4: 91].

**XULOSA.** Semantikaga oid masalalarni o'rganish kuchaygan bir paytda pragmatikaga alohida e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki semantikaning tekshirish ko'lami g'oyat kengayib ketganligi tufayli uni bir oz yengillatishga to'g'ri keldi. Natijada pragmatika semantikadan ajralib chiqadi. Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi. Lisoniy birliklar ishtirokidagi pragmatik konnotatsiyani aniqlash borasida olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, konnotatsiyaning real mazmuni va mohiyatini aniqlash uchun vaziyat konteksti, oldindan mavjud bo'lgan bilimlar, muloqot presuppozitsiyasi, muloqotchilar o'rtasidagi distansiya kabi qator ekstralingvistik, ya'ni pragmatik faktorlar konnotatsiya hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan pragmalingvist olimlar tomonidan tilshunoslikka "pragmatik konnotatsiya" tushunchasi kiritilgan va lisoniy birlik semantikasidagi konnotatsiya so'z bilan ifodalanuvchi, konseptual, matn hosil qiluvchi xususiyatlarga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Daniyeva M.Dj. Lug'aviy birliklar o'rtasida semantik moslashuv masalalari. – Xorazm ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. № 3/4. (99). Xiva, 2023. – B. 163-166.
2. Balakin S.V. Derivatsionniy potensial leksicheskix sistem yazika. Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. – Perm, 2018. - 46 s.
3. Katsnelson. S.D. Rechemislitelniye protsessi // - VY, 1984. № 4. - S. 8.
4. Mirkin I.Y. Tekst podtekst i kontekst. – Moskva. 1976. - 91 s.
5. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2001. 4-son. - B. 55-57.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 320 b.
7. Susov I.P. Kommunikativno-pragmaticheskaya lingvistika i yeye yedinitsi // Pragmatika i semantika sintaksicheskix yedinitis. - Kalinin, 1984. - S.3-12.

8. Trubnikova Y.V. Leksiko-derivatsionnaya struktura v interpretatsii prozaicheskogo teksta // Sibirskiy filologicheskiy jurnal. - Novosibirsk, 2009. - № 1. - S. 200-207.
9. Shodiyev S.E. Turg'un so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasi. Filol. fan. fal. dokt.... diss. avtoref. – Samarqand, 2020. - 46 b.
10. Carnap R. Introduction to Semantics. – Cambridge: Harvard University Press, 1942 (reprint 1959, 1975, 2002). - 1088 p.
11. Morris Ch. Writings on the General Theory of Signs. – The Hague-Paris, 1997. - 324 p.

## FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK FOLKLORE

**Xalilova Sh. J.***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Xorijiy tillar kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d., (PhD)*

**Annotation.** *Folklore is the artistic pleasure of the nation that has been formed for centuries and it is a product of national creativity. It has about its socio-historical sources. The initial samples of folklore were created in the primitive society; they are characterized by the relative traditions of people of that time and their outlook. This is a form of folklore art, puzzles, and images and the motives of which have sustained certain stability.*

**Key words:** *fairy tales, puzzles, ancient literary, myths, various genres, epos, lyrics, drama, hero, traditional poems.*

**Annotatsiya.** *Xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy ijodi bo'lib, xalq an'analari mahsuli hisoblanadi. O'zining ijtimoiy-tarixiy manbalari haqida folklorning dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ular o'sha davr odamlarining nisbiy an'analari va dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Folklor san'atning bir turi bo'lib, unga o'xshash motivlar ma'lum bir barqarorlikni saqlab qoladi.*

**Kalit so'zlar:** *ertaklar, topishmoqlar, qadimgi adabiyot, afsonalar, turli janrlar, lirika, drama, qahramonlar, an'anaviy she'rlar.*

**INTRODUCTION.** From the earliest times of history, man is not just alive himself, but it is also a long-term survival of his own tribe and his family was watching the event. Therefore, the essence of lullaby, consolation, fairy tales and puzzles first of all, is oriented to educate conscious, strong, eager man. The idea of people about the universe which surrounds it and its description and accumulated knowledge, wise wisdom and conclusions based on experience it clears to them that they have the kind of advice. That is why there are some similarities in different nations. There is a commonality of many oral folk tales in remote countries. Most ancient literary monuments of many nations, such as myths and in myths and fairytales are evident the similarities of one another: this is more about the people and its great, glorious duty on earth heroism, intelligence, generosity, goodness and the beauty is found in the well-known hymns. Scholars rightly distinguished the development of scientific concepts, philosophy, literature, art, sculpture, architecture and music. Myths are the original source of theatrical arts that they did.

**MAIN BODY.** Time has passed, with the development of personality society and children have "acquired" (or when the adults have created them for themselves and then to the world. The most striking examples of literature are Robinson Crusoe, "Gulliver" and "Gargantuan" and myths and fairy tales. Folklore studies folklore genres in three literary forms. The concept of the form is broad sense. It includes various genres. Forms are different from each other in terms of reality. Epos is the reality without objectionable storyline, the lyrics are subjectively describing the impressions, internal feelings of a person from reality; drama reflects life stories through the words and actions of the characters. The original writer, the inspector of the Uzbek folklore and publishers in the second half of the XIX century and early 20th century European tourists, ambassadors and scholars living in Europe. Journalists, such as N.Lyapunova, A.Vasilev, A.Samoylovich and others in the works of his life, customs, traditions of the Uzbek people

important notes are found. In particular, folk songs, laughter, interest his impressions of art, folklore; some common drama, details of some fairy tales. N.P Ostroumov's work is significant in the collection and publication of the samples of Uzbek folk tales, riddles, articles and stories. In fact, he has been pursuing missionary goals, but his work in this area is objective as an important contribution to the study of the Uzbek folklore. At the same time some examples of Uzbek folklore are also known throughout the world. [1]. In 1911, the poem "Yusuf and Ahmad" was published in Khorezm version. In the XIX century, some folklore and book lovers, started some manuscripts of folk tales. Result of the study translation of such publications or translating folk tales type include "The story of Gogogli", "Yusufbek and Akhmadbek", "Tulumbiy", "Chor Dervish", "Rustami doston", "Tokhir and Zukhra", "Ashik Garib and Shokhsanam", "Sanobar", "Bakhrom and Gulandom", "Hurliko and Hamro", "Aldarko" and so on. Collecting and studying of the samples of the folk artistic creativity began mainly in XX century [2]. It has been revived since the 20th century. The assignment of the Uzbek delegation with Gozi Olim Yunusov oversees the work of the people in Tashkent, Syrdarya and Samarkand. There are many tales, proverbs, puzzles and fairy tales spread throughout the 1922s in some regions of Uzbekistan. Fozil Yoldosh ugli and Hamroql wrote part of his epic "Alpomish" for the first time in the history of epos. The scientist summarized the results of his observations and wrote an article about the Uzbek epos. The best examples of such poems were first discussed as "Alpomish", "Yusuf and Ahmad" [3]. It is worth noting that Alpomish is so famous as poet Odyssey, Iliada, who played an important role in the world literature like epos.

According to Professor B.Sarimsakov, the three types of literature are used in folklore but also the three literary texts, which are folklore-specific articles, riddles, proverbs, applause learned as a separate species.[4] In this sense, the scientist divided Uzbek folklore genres into the following types:

- 1.Epos: myth, aphorism, narrative, fairy tale, epic, national, historical episode, anecdote, and cock-and-bull story;
2. Lyrics: love songs, ritual sings, work songs, and choral folk - songs;
3. Drama: Ocular Drama, Laughing Story, Witticism and puppet - show;
4. Special tour: simple applause, proverbs, riddles and other idioms.

**METHODOLOGY OF THE RESEARCH.** Tradition is a product of national creativity. It has about its socio-historical sources. It is known that the initial samples of folklore were created in the primitive society; they are characterized by the relative traditions of people of that time and their outlook. This is a form of folklore art, puzzles, and images and so on the motives of which have sustained certain stability. Folklore is the artistic pleasure of the nation that has been formed for centuries. There are some differences between the fairy tales and the genre but the art style has a traditional shape. In all these genres of folklore the composition is a traditional start, which is contrasted a description of the story, and completion and the images.

**ANALYSIS AND RESULTS.** The heroes of traditional poems are born in preternaturally; they have an infinite power. The genre of Uzbek folklore is rich and the variety is different from the genres of other folklore genres. Also, there is such general folklore - despite the fairy tale, proverbs, and puzzles as Scandinavian saga. Cock -and- bull stories and witticism are mainly genres of Uzbek folklore. Several genres of the people are similar to each other differentiate. This feature is based on the history, traditions, customs of every nation. The set of genres of Uzbek folklore has historically been formed in unique art system, a complex and unique feature of various

types of works by its relationships and its interaction. Genres System formation and existence is calculated one of the most important laws of folklore development. Artistic principles in genres of English and Uzbek folklore totality. Each genre has its commonplace, despite differences but also those that have the same commonality substitutes. These include:

a) All genres of English and Uzbek folklore are unique in essence and they have the commonwealth of all people. Goal of both nation's folklore is to describe the spirit dreams, hopes, joys, and adventures of the people.

Biroq, har bir an'ananing o'ziga xos hikoya qilish texnikasi va tematik urg'u bilan singdiradigan o'ziga xos madaniy ta'sirlari bo'ladi. Fors xalq hikoyalari ko'pincha fors adabiyotiga xos bo'lgan she'riy tuyg'ularning chuqur havzasidan kelib chiqqan holda o'zining nozik she'riy ifodalari va tasavvufiy ohanglari bilan ajralib turadi. Bu rivoyatlar ko'pincha fors madaniyatining she'riy merosini aks ettiruvchi lirizm va metafizik tafakkur tuyg'usi bilan sug'orilgan.

Aksincha, o'zbek xalq ertaklari pragmatik donolikka, hazil-mutoyibaga, oilaviy munosabatlarga kuchli urg'u berishga suyanadi. O'zbek jamiyatida mustahkam o'rnashgan qadriyatlarga asoslangan bu hikoyalar ko'pincha amaliy hayotiy saboqlar berish, jamoaviy o'zlikni anglash va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek rivoyatlarida to'qilgan hazil va zukkolik bu ertaklarga o'ziga xos joziba qo'shib, o'zbek xalqi qadrlaydigan kundalik voqelik va qadriyatlarni ulug'laydi.

Mohiyatan, fors va o'zbek xalq hikoyalari umumiy g'oyali mavzular va hikoyaviy elementlarga ega bo'lsa-da, ularning o'ziga xos madaniy asoslari o'ziga xos joziba va rezonans baxsh etadi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz fors va o'zbek madaniy landshaftini boyitgan turli hikoyachilik an'analarni chuqurroq tushunamiz, bu jo'shqin jamiyatlarning umumiy tasavvurlari va qadriyatlari haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Masalan, fors xalq ertaklarida hikoya qilish ko'pincha fors adabiyotining boy she'riy merosini aks ettiruvchi murakkab she'riy ifodalar va tasavvufiy ohanglarni o'z ichiga oladi. Bu xususiyatni ifodalovchi misollardan biri mashhur fors

ertagi “Layli va Majnun”dir. Bu fojiali ishq qissasi Layliga bo‘lgan beg‘ubor muhabbati tufayli aqldan ozgan yigit Majnun haqida hikoya qiladi. Hikoya lirik til, metafora va allegorik unsurlar bilan to‘lib-toshgan bo‘lib, yuksak his-tuyg‘u va ruhiy sog‘inch hissini yaratadi. “Layli va Majnun” hikoyasi nafaqat fors she‘riy an‘analarining mazmun-mohiyatini qamrab olgan, balki muhabbat, sadoqat, inson ruhi kabi falsafiy mavzularni chuqurroq mujassam etadi.

Ertakning o‘zbekcha misoli biroz farq qiladi. O‘zbek xalq ertaklarida ko‘pincha o‘zbek xalqi qadrlagan qadriyatlar va kundalik voqelikni aks ettiruvchi pragmatik donolik, hazil va oilaviy munosabatlarga urg‘u beriladi. Bunga yorqin misol sifatida o‘zbek xalq ertaki “Nasriddin Xo‘ja”ni keltirish mumkin. Nasriddin Xo‘ja o‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘zining zukkoligi, hazil-mutoyibasi va zukkoligi bilan mashhur bo‘lgan sevimli siymodir. Xo‘ja Nasriddinning ertaklarida kulgili latifalar va ibratli iboralar orqali axloqiy saboqlar, jamiyat me‘yorlariga qarshi chiqish, sog‘lom aql hikmatlari tarannum etiladi. “Xo‘ja Nasriddin” hikoyalardagi hikoyachilik o‘zining yengil-yelpi ohangi, aqlli so‘z o‘yini, inson tabiatining illatlariga e‘tibor qaratilishi bilan ham qiziqarli, ham ibratli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bu turga mansub ko‘plab hikoyalarda mutoyiba va yumorga alohida diqqat qaratilgan bo‘lib, kulgili holatlar zamiriga acchiqi haqiqat, ijtimoiy hayotning real tasviri yashiringan bo‘ladi.

Bu misollar fors va o‘zbek xalq ertaklarida qo‘llaniladigan o‘ziga xos hikoya usullarini ko‘rsatadi. Fors rivoyatlari ko‘pincha she‘riyat, tasavvuf va falsafiy tafakkur sohalariga chuqur kirib borsa, o‘zbek hikoyalarda har bir an‘anaga singib ketgan o‘ziga xos madaniy tuyg‘u, mentalitet, milliy koloret va qadriyatlarni aks ettiruvchi hazil, amaliy hikmat va kundalik hayot dinamikasiga urg‘u beriladi.

**XULOSA.** Fors va o‘zbek xalq hikoyalarni qiyosiy tadqiq qilish orqali biz ushbu ikki madaniy manzarani ko‘rkam qissachilik an‘analarining boy gobelenini chuqurroq anglaymiz. Mavzular va hikoya tuzilmalaridagi o‘xshashliklar geografik chegaralarni kesib o‘tuvchi umumiy insoniy tajribalarni ta’kidlasa-da, fors va o‘zbek folklorining o‘ziga xos ta’mi bizga har bir an’anani shakllantiradigan noyob madaniy merosni eslatadi. Ushbu adabiy hikoyalarning nozik tomonlarini ochib hikoyalar xilma-xilligini kashf etamiz, balki madaniy tafovutlarni bartaraf etadigan va o‘zaro tushunishni kuchaytiradigan aloqalarni o‘rnatamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 490 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021, – 464 б.
3. Yuldashev Odiljon Toshpulatovich. “On the mechanisms of preparing future teachers for innovative activity”. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 824-827.
4. Do‘smatov To‘g‘onboy G‘aniyevich. “Requirements for the creation of new pedagogical technologies in education of youth students”. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 873-876.

**ILK O'SPIRINLIK DAVRI O'QUVCHILARIDA IJTIMOY TARMOQLARGA TOBELIK****Ibragimova Z. I.**

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, xorijiy va mahalliy psixolog olimlarining psixologik qarashlari hamda o'tkazilgan ba'zi eksperimentlar natijalari ko'rsatilgan. Shuningdek ijtimoiy tarmoqlarga tobelikni yengib o'tish bo'yicha tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlarga tobelik, kompyuter texnologiyalari, ilmiy, madaniy va ma'rifiy saytlar, depressiv holat, emotsiyalarini boshqara olish, jonli muloqot.

**Annotation:** This article shows the psychological and social characteristics of addiction to social networks, the psychological views of foreign and local psychologists, and the results of some experiments. Recommendations for overcoming addiction to social networks are also shown.

**Key words:** dependence on social networks, computer technologies, scientific, cultural and educational sites, depressive state, ability to control emotions, live communication.

**KIRISH.** Jahonda malakali, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, sifatli kadrlar tayyorlash, hamda o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonidagi shakllanib borayotgan tobelik holatlarini olidini olish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida ijtimoiy tarmoqlar dunyosi har bir zamonaviy inson hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bundan tashqari, keng ko'lamli faktlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik odamlar ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishni o'rganish bosqichida va ayniqsa, bilim olish uchun qulay vosita deb bilishadi. Shunday qilib, 2023-yil 7-yanvar statistik ma'lumotlarga va UNICEF tadqiqotlariga ko'ra, dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 5,5 milliarddan oshgan va bu jahon miqyosida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning turli jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Boston shimoli-sharqiy universiteti (AQSH), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya), Regents universiteti (Buyuk Britaniya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida (Rossiya), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Xitoy Milliy ta'lim tadqiqotlari markazi (NIES, Guanchjou) va boshqalarda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmogda.

Respublikamizda so'nggi-yillarda o'quvchi yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarga tobelikni oldini olish, hamda yuksak malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor vazifa sifatida qaralishi e'tiborga molik. Bunday tadqiqotlarda o'quvchi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligini oldini olish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yangicha yechimlarni izlab topish imkoniyatlari yaratilmogda. Foydalanuvchilarning aksariyat qismini o'spirin yoshidagi yoshlar tashkil etmogda. 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning 71 % qismi kunlik vaqtlarining 8-10 soat vaqtlarini ijtimoiy

tarmoqlardan foydalanishga sarflashmoqda. Bu esa jahon miqyosida o'quvchi yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobeklik ko'rsatgichini yuzaga kelganini ko'rsatmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Kibermakon psixologiyasini tadqiq qilishning nazariy va amaliy masalalari, xususan, virtual aloqa va tizimli xarakterdagi shaxsiy transformatsiyalar D.G.Muxamedova, E.Yu.A'zamova, S.B.Raximmirzaeva va boshqalar kompyuter o'yinlarining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'siri D.G.Muxamedova, I.I.Raximova, L.A.Nigmatulina, N.M.Dalimova, U.Saitova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. [12; 5]

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.E.Voyskunskiy, A.Y.Yegorov, D.G.Rybaltovich, V.D.Mendelevich, V.M.Bondarovskaya va boshqalar tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish motivlari, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning ijtimoiy-psixologik sabablariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan V.L.Maligina, K.S.Yang, K.Myurrey, O.Ritchell, M.Griffits, N.A.Tsoy va boshqalar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, giyohvandlik xulq-atvorining bir turi sifatida muammolari, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlarni suiste'mol qilishning psixologik oqibatlarini ilmiy tadqiq etilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Belgilangan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi nazariy va empirik tadqiqot usullari to'plami qo'llanildi: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; hujjatlarni tahlil qilish; kuzatish; psixologik test; suhbat; ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik va statistik metodlari va N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnovalarning "Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi bo'yicha so'rovnoma"si, T.V.Snegireva tomonidan modifikatsiya qilingan K.Rojers va R.Raymondning "Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya so'rovnoma"si, V.I.Morosanovaning "O'z xulq-atvorini boshqarish uslubi so'rovnoma"si, V.V.Sinyavskiy va V.A.Fedoroshinning "Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari" testi, M.Schneiderning "Kommunikativ nazorat so'rovnoma"si, V.V.Boykning "Shaxslararo muloqotda hissiy to'siqlar diagnostikasi so'rovnoma"si, L.N.Yuryeva, T.Yu.Painbotaning "Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik diagnostikasining skrining metodologiyasi" testi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishining psixologik xususiyatlari tendensiyasining tanlangan komponental strukturasi bo'yicha informatsion faoliyatda motivatsion sferaning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy psixologik adaptatsiya, o'z xulq-atvorini boshqarish; kommunikativ qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotda hissiy samaradorlikning psixologik xususiyatlari yoritildi.

Shuningdek, tahliliy materiallar asosida o'quvchi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar tobeligiga va ijtimoiy tarmoqlarga moyilligi muammosiga xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlarini o'rganishning metodologik masalalari bayon etilgan. Mutaxassislarining umumlashtirilgan fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoq tendensiyasining komponental strukturasi adekvat tarzda o'rganish uchun muayyan 6 ta psixodiagnostik kompleksni tanlab olindi:

- ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik;
- o'z xulq-atvorini tartibga solish;
- kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati;
- kommunikativ nazorat;
- informatsion faoliyat nuqtai nazaridan o'quvchi yoshlarning motivatsion sohasining xususiyatlari;

- muloqotda hissiy samaradorlik.

Aniqlangan individual psixologik xususiyatlarni tahlil qilish jarayonida biz ularni, asosan, psixodiagnostika uchun ishonchli va asosli vositalar mavjud bo'lgan murakkab shaxs shakllanishining turli tuzilmalariga e'tibor qaratgan holda ko'rib chiqdik. Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik tendensiyasi rivojlanishining joriy holati o'rganish maqsadida empirik tadqiqot o'tkazildi. Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik tendensiyasi rivojlanishining joriy holati o'rganish maqsadida empirik tadqiqot o'tkazildi, unda umumta'lim maktabi o'quvchilarining 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 234 nafar qizlar va o'gil bolalar ishtirok etdi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri o'quvchilar dunyoqarashi rivojlanishini o'rganish uchun olib borilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning ko'pchiligida (52,6%/123 kishi) ijtimoiy tarmoqlarga tobelik xavfi bosqichi kuzatildi.

Emperik tadqiqot natijalariga ko'ra 234 nafar o'quvchilardan shakllangan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bosqichi ko'rsatgichida 27,4 foizi, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik yuzaga kelish bosqichi 52,6 foizni, ishqibozlik bosqichida 16,2 foizni, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni rivojlanish xavfi yo'q 3,8 foizni tashkil etmoqda.

Miqdoriy jihatdan keyingi o'rinda turuvchi motivatsiya bu relaksatsion motivatsiya bo'lib, bu respondentlarning 28,6 foizi (67 kishi) da kuzatildi. Mazkur

toifadagi respondentlar uchun ijtimoiy tarmoqda vaqt o'tkazish real hayotda boshdan kechirilgan stressli vaziyatlar va qiyinchiliklardan keyin dam olish vositasida sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon, odatda, aqliy mehnat talab qilmaydigan, asosan, ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan tegishli ma'lumotlarni idrok etish orqali amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarda eng kam ko'rsatkichlar kognitiv motivatsiya - 17,9% (42 kishi), hamda reaktivatsion motivatsiya 1,3% (3 kishi)da kuzatildi.

Kognitiv motivatsiyaga ega bo'lgan respondentlar uchun ijtimoiy tarmoq ularning bilimini boyituvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi, intellektual darajasini rivojlantiruvchi maqsadli ma'lumotlarni izlash vositasidir. Bundan tashqari, o'quvchilarning ushbu toifasi, odatda, ma'lumotni yangiligi, o'z kasbiy darajasini oshirish imkoniyati, amaliy ahamiyati, ilmiy asoslilik kabi mezonlar asosida baholaydi.

O'z navbatida, reaktivatsion motivatsiyaga ega bo'lgan kamchilik respondentlarning ajralib turadigan xususiyatlari shundaki, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi muayyan stimulatsiya vositasida sodir bo'ladi, jumladan ma'lumotdan foydalanish ularga kayfiyatini, emotsional holatini ko'tarish, quvnoqlikka erishish uchun kerak bo'ladi.

**XULOSA.** O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik muammosini o'rganish zamonaviy psixologiya fanida amaliy jihatdan sezilarli qiziqish uyg'otadi. Bu butun dunyo bo'ylab global tarmoqdan foydalanuvchilar sonining kunlik dinamik o'sishi bilan izohlanadi, buning natijasida ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keladi, shu jumladan, virtual tarmoqning paydo bo'lishi va rivojlanishi xavfi ostida bo'lgan odamlar sonining ko'payishi kabilar. Bundan tashqari, ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining katta qismi orasida katta va progressiv qismni o'qish bosqichidagi yoshlar va ayniqsa o'quvchilik -yillarida, qoida tariqasida, qulay va maqsadli deb hisoblaydilar.

Zamonaviy tadqiqotchilarning umumlashtirilgan pozitsiyalaridan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya doirasida o'quvchi yoshlarga nisbatan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik,

me'yordan kognitiv, hissiy va fiziologik og'ishlar majmuini aks ettiruvchi maxsus ijtimoiy-psixologik xususiyatni tushunish maqsadga muvofiqdir va ularning hatti - harakatlarida namoyon bo'lib, bu o'spirin yigit va qizlarning kundalik hayotida global ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yetarli darajada nazorat qilmasligini ko'rsatadi. O'z mohiyatiga ko'ra, o'rganilayotgan hodisa yosh o'spirin yigit va qizlarning ushbu muhim jarayonni davom ettirishga bo'lgan cheksiz istagi bilan birga global ijtimoiy tarmoqlar tarmog'ida kezish uchun tegishli axborot vositalaridan (smartfon, planshet, shaxsiy kompyuter va boshqalar), haddan tashqari foydalanishda namoyon bo'ladi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tasirchanligini yanada oshirish" borasidagi yig'ilishda so'zlagan nutqi. Toshkent, 19.01.2021 // <https://zarnews.uz/post/shavkat-mirziyoyev-eng-katta-xavf-loqaydlik-va-beparvolik>
2. Далимова Н. Компьютер ўйинларига тобеликни аниқлаш методикасини ишлаб чиқиш ва миллий шароитларга мослаштириш. – Т.: «ЎзМУ хабарлари», 2014. Махсус сон. –104-107 -б.
3. Змановская Е.В. Девиантология (психология отклоняющего поведения). – М.: «Academia», 2003. -С. 289.
4. Юрьева Л.Н., Больбот Т.Ю. Клинические и психологические особенности лиц с компьютерной зависимостью. // Украинський вісник психоневрології. Харьков, 2002. Т. 10, вип.1. -С. 244-245.
5. Юрьева Л.Н., Больбот Т.Ю. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, коррекция и профилактика. – Днепропетровск: «Пороги», 2006. –С. 196.
6. Young K. Caught in the Net. How to Recognize the signs of Internet Addiction. And a Winning strategy for Recovery. - New York: John Wiley and Sons, Inc., 1998. -P. 55.
7. Beck A.T. Cognitive therapy and the emotional disorders. - New York: International Universities Press, 2001, № 2. -P. 34-40. 7. Davis R.A. A Cognitive-Behavioral Model of Pathological Internet Use (PIU). - M.A. York
8. Goldberg, I. (1996) Internet addiction disorder // CyberPsychol. Behavior. V. 3. №4. P. 403–412
9. Voiskounsky A.E. Internet addiction in the context of positive psychology // Psychology in Russia: State of the Art. 2010. Т. 10. P. 541—549. 3. Асмолов А.Г., Цветкова Н.А., Цветков А.В. Психологическая модель Интернет-зависимости личности // Мир психологии. №1. С. 179-193.
11. Войскунский, А. Е. Актуальные проблемы зависимости от Интернета // Психологический журнал. 2004. Т. 25. №1. С. 90–100
12. <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide>.

**ROSSIYA FEDERATSIIYASIDA OLIY KASBIY TA'LIMNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI****Itolmasova Z. T.**

Turon universiteti

G'arb tillari kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, biz oliy kasbiy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning mavqeini oshirishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda uni takomillashtirishning samarali strategiyalari, oliy ta'lim innovatsion paradigmasi, jamiyatning intellektual elitesini shakllantirishda oliy kasbiy ta'limning o'rni hamda zaruriyati haqida so'z boradi. Shuningdek, bu sohadagi mutaxassislarni kompleks tayyorlash mazmunini belgilaydigan gumanitar fanlar blokining lingvistik tarkibiy qismi masalasi, talabalarini kasbiy nutqiy muloqotga o'qitishning yaxlit ilmiy-metodik konsepsiyasi borasida fikrlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sivilizatsiya, kasbiy ta'lim, innovatsion paradigma, ilmiy-metodik konsepsiya, ta'lim integratsiyasi, ijtimoiy buyurtma, nutq fanlari sikli


**Abstract.** In this article, we will talk about the socio-economic importance of higher professional education, the scientific research carried out to increase its status and effective strategies for its improvement, the innovative paradigm of higher education, the role and necessity of higher professional education in the formation of the intellectual elite of society. will go. Also, the issue of the linguistic component of the block of humanities, which determines the content of the comprehensive training of specialists in this field, and the integrated scientific and methodological concept of teaching students to professional speech communication are discussed.

**Key words:** civilization, professional education, innovative paradigm, scientific-methodological concept, educational integration, social order, cycle of speech sciences

**KIRISH.** Oliy kasbiy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, sivilizatsiya evolyutsiyasini belgilab beruvchi insoniyatning ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-axloqiy taraqqiyotidagi roli hammaga ma'lum. Ta'limning ijtimoiy mavqeini oshirish, uni ushbu murakkab ijtimoiy tuzilmaning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning birinchi qatoriga qo'yish, uni takomillashtirishning samarali strategiya va taktikasini tanlash milliy ta'lim tizimini asosiy ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini saqlash va takomillashtirishni ta'minlovchi davlat instituti sifatida e'tirof etilganidan dalolat beradi. Ko'p bosqichli yaxlitning bir qismi bo'lgan oliy muhandislik-texnik ta'lim murakkab tizimli ob'ekt bo'lib, u bir tomondan o'tmishdagi madaniy an'analarga asoslanadi, ikkinchi tomondan, siyosiy, iqtisodiy va zamonamizning ijtimoiy-madaniy voqeliklari, uchinchi, kelajak avlodlarning rivojlanish va o'z-o'zini anglash darajasini belgilaydi. Muhandislik-texnika maktabining qayd etilgan ko'p funktsionalligi uning oliy ta'lim tizimidagi pozitsiyalarining ustuvorligini va jamiyatning zamonaviy holati va ehtiyojlariga "ilg'or" muvofiqligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limning innovatsion paradigmasini joriy etish, jadal ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiyalashgan, universitet o'quv va ilmiy ishini iqtisodiyot va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lash, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning fanlararo bog'liqligi, insonparvarlashtirish va kengroq aytganda, ta'limni uyg'unlashtirish kabi zamon talablariga zudlik bilan javob beradigan eng mobil va ijtimoiy buyurtmalarga "sezgir" oliy muhandislik-texnika maktabi ekanligi mantiqiydir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Jamiyatning intellektual elitasini shakllantirishda oliy kasbiy, shu jumladan texnik maktablarning yetakchi rolini tasdiqlash, ta'lim va ilmiy faoliyat sohalari salohiyatini sivilizatsiya rivojlanishining asosiy sharti sifatida birlashtirish zarurati “2002-2006 yillar uchun Rossiyada fan va oliy ta'lim integratsiyasi” Federal maqsadli dasturiga asos bo'ldi. Ushbu dasturning muammolariga muvofiq, shuningdek, ta'limning globallashuvi va insonparvarlashuvi jarayonlari sharoitida OTMLlarda muhandislik-texnik sohadagi mutaxassislarni kompleks tayyorlash mazmunini belgilaydigan gumanitar fanlar blokining lingvistik tarkibiy qismi masalasi qiziqish uyg'otadi. Ushbu masalani 3.14 – “Fan va texnologiyaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha monografiyalarni tayyorlash” yo'nalishi bo'yicha “Integratsiya...” Federal maqsadli dasturi doirasida tizimli va ko'p qirrali o'rganishga urinish etakchi texnika oliy o'quv yurtlarining rus tili kafedralari o'qituvchilari (f.f.n., dos. N.N. Romanova, f.f.n. dos. O.A.Jilina, f.f.d., prof. T.P. Skorikova N.E.Bauman nomidagi MDTUdan, p.f.n., dos. O.V.Konstantinova I.M.Gubkin gomidagi neft va gaz RDUdan, MGSUdan I.M.Beluxina), ta'lim psixologiyasi sohasidagi (TFRFdan p.f.d., prof. N.V.Maslova) va kasbiy muloqot metodikasi (MANPOdan p.f.d., prof. I.V.Mixalkina) mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan jamoaviy loyihani [2:312] yuzaga keltirdi. Ko'p qirrali loyihaning strategik maqsadiga erishish uning taktik maqsadlarini turli tadqiqot yo'nalishlarida, xususan: ilmiy-uslubiy sohada - oliy o'quv yurtlarining texnik yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalarini kasbiy nutqiy muloqotga o'qitishning yaxlit ilmiy-metodik konsepsiyasini ishlab chiqish uchun tabiiy va gumanitar fanlar ma'lumotlarini tizimlashtirish, ta'lim muassasalarida til o'qitishning tizimli darajadagi modelini asoslash; ilmiy-pedagogik sohada - ko'rsatilgan modelni oliy texnik maktabning o'quv jarayoniga joriy etish orqali differentsiatsiya qilishni ta'minladi.

**NATIJALAR.** Tarixan, texnik ta'lim Rossiyada eng keng tarqalgan ta'lim turidir, chunki u jamiyatning yaratuvchanlik salohiyatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu uning oliy ta'lim tizimidagi ustuvor rolini va bitiruvchilarning katta hajmlarini izohlaydi: “Texnika va texnologiya” yo'nalishi bo'yicha muhandislik kadrlarini tayyorlash Rossiya Federatsiyasining 346 ta davlat va 112 ta nodavlat universitetlari tomonidan amalga oshiriladi; shu bilan birga, 90-yillardan beri muhandislarni tayyorlash 48 ming kishiga oshdi. Shu sababli, rus muhandislik maktabining xususiyatlarini tahlil qilishga murojaat qilish mantiqiy ko'rinadi: uning ilmiy-pedagogik an'analari va oliy kasbiy ta'limning jahon va milliy tizimlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, yuqorida tavsiflangan davrning “ijtimoiy buyurtmasi” va jamiyatning tarixiy shakllanish bosqichlarida, hozirgi holati va prognozli rivojlanishining qadriyat-semantik ideallarini aks ettiruvchi pedagogik paradigmalarning o'zgarishi kontekstida mutaxassislar tayyorlashning mazmunli maqsad va vazifalari dinamikasi. Ushbu tizim doirasida shakllantirilgan “muhandislik” deb ataladigan ta'lim turi an'anaviy ravishda tabiatshunoslik, gumanitar va texnik ta'lim tarkibiy qismlaridan iborat. Ushbu komponentlar o'rtasidagi mutanosiblik oxir-oqibatda mumkin bo'lgan o'zgartirishlar (modifikatsiyalar) oralig'ida kelajakdagi mutaxassisning turini belgilaydi:



Ta'lim jarayonining eng yuqori samaradorligiga fundamental umumiy ilmiy tayyorgarlikning tor ixtisoslashtirilgandan, boshqacha aytganda, “savodxonlik” ning “mutaxassislik” dan ustunligi


sharti bilan erishiladi, deb hisoblanadi. Rossiya oliy texnik ta'lim tizimining evolyutsiyasi, uning mazmuni, maqsad va vazifalari dinamikasi jamiyatning madaniy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini, uning qiymati va semantik ko'rsatmalarini o'zgartirishni aks ettiradi. Shunday qilib, 18-asr oxiri - 19-asr boshlarida Rossiyada muhandislarni tayyorlash yuqori nazariy o'qitish darajasi va universitetlarning tabiiy fakultetlari bilan chambarchas bog'liq holda amaliy mashg'ulotlarning muhim ulushi kombinatsiyasiga asoslangan edi, bu qomusiy bilimli mutaxassislarni etishtirishga hissa qo'shgan. Eng samarali deb e'tirof etilgan "Muhandislarni tayyorlashning rus usuli" bir qator xorijiy mamlakatlarda oliy texnik ta'limining asosi sifatida ishlatilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, 1871 yilda D.I. Mendeleev hozirda umum tan olingan uzluksiz, ko'p bosqichli ta'lim g'oyasini ilgari surgan. Inqilobdan oldingi Rossiyada qabul qilingan bakalavr va magistr darajali ko'p bosqichli tuzilma Sovet hokimiyatining birinchi yillarigacha davom etgan.

**MUHOKAMA.** O'tgan asrning 20-yillari oxirida, sanoatlashtirish davrida, mutaxassislarning keskin etishmasligi va aholining savodxonligi pastligi sharoitida barcha mutaxassislilar bo'yicha jamiyat uchun zarur kadrlarni ommaviy ravishda fan va faoliyatga asoslangan holda tayyorlash vazifasi qo'yildi. 60-yillarda SSSR Vazirlar Sovetining Raisi A.N. Kosigin oliy ta'lim tizimiga bakalavriat va magistraturani joriy etish tarafdori edi, biroq bu g'oya faqat 1992 yilda amalga oshirildi.

Umuman olganda, 20-asrning 90-yillari Rossiya jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va texnik-iqtisodiy islohotlari bilan xarakterlangan va bu o'zgarishlarga oliy ta'limni har tomonlama moslashtirish shakli sifatida texnik universitetlarning ommaviy ravishda paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Aynan shu yillarda oliy kasbiy ta'lim flagmani – N.E. Bauman nomidagi MDTU o'quv jarayoniga, keyin esa bir qator yetakchi texnika universitetlarda "nutq fanlari sikli" kurslari joriy etildi, ular asosan orfologiya va amaliy savodxonlik jihatlarini qamrab olgan va ixtiyoriy edi. Bu jarayon stixiyali xarakterga ega bo'lib, normativ hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, namunali (o'quv) ta'lim dasturlari va boshqalar bilan qonuniylashtirilmagan edi. 90-yillarning oxiri asosiy jamiyat institutlarini, shu jumladan ta'lim tizimini rivojlantirishda madaniyatga asoslangan (madaniy markazlashish) tendensiyalarning yanada kuchayishi bilan belgilandi. Rossiya muhandislik maktabining rivojlanish istiqboli yetakchi texnik universitetlarni ilmiy, ishlab chiqarish, texnik va ijtimoiy faoliyat sohalarida mutaxassislar tayyorlaydigan yirik ilmiy-tadqiqot va madaniy markazlarga aylantirish deb e'lon qilinishi tabiiydir [1:367]. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, texnika universiteti nafaqat fan va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash markazi, balki shaxsning kasbiy, madaniy va axloqiy ehtiyojlarini qondirish, ijodiy imkoniyatlarni erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan ta'lim muassasasi bo'lishi kerak. Xalqaro hamkorlikning turli yo'nalishlaridagi global integratsiya jarayonlari milliy ta'lim tizimlari – fundamental ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini saqlash va takomillashtirishni ta'minlovchi eng muhim davlat institutlarining hozirgi holatini belgilab beradi. Yevropa oliy ta'lim tizimini uyg'unlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklarasiya (Parij, 1998 yil) va Oliy ta'lim bo'yicha Evropa hududi to'g'risidagi deklarasiya (Boloniya, 1999 yil) Rossiya oliy ta'limini umumevropa tizimiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirdi.

Sivilizatsiyaning "barqaror rivojlanish modeli" ga o'tish, sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini texnologik taraqqiyot yo'liga qayta qurish, fan va intellektual iqtisodiyotning hukmronligi, shuningdek, shu asosda postindustrial jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy turining shakllanishi injenerlik-texnik ta'limning yangi qiyofasini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limning yangi paradigmasi insoniyatning “yashab qolishi” va sivilizatsiyaning barqaror dinamik rivojlanishini ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida mohiyatan inson taraqqiyotiga, ta'lim va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, mutaxassislarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishga, universitet ta'limining barcha muhim jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan. 2000 yilda Oliy kasbiy ta'limning DTS-2 joriy etilishi asosan Rossiya oliy ta'limini Boloniya jarayonining yuqorida tavsiflangan yo'riqnomalariga qaratdi: akademik mobillikni ta'minlash, diplomlarni konvertasiya qila olish, o'quv dasturlarini mazmun va mehnat zichligi nuqtai nazaridan birlashtirish va boshqalar [3]. Ta'lim tizimining mutaxassislarni tayyorlashning insonparvarlashtirilgan modeliga yo'naltirilganligi rus milliy ta'lim doktrinasi mazmuni va ruhini belgilaydi. Bo'lajak mutaxassisni tayyorlash sifati muammosiga birinchi navbatda e'tibor beriladi, uning professional portreti quyidagilar bilan tavsiflanadi:



**XULOSA.** Hozirgi vaqtda Rossiya oliy ta'limini Boloniya konvensiyasi talablariga to'liq moslashtirishga qaratilgan uchinchi avlod Davlat standartlarini faol ishlab chiqish davom etmoqda. Bu boradagi asosiy pozitsiyalar “bakalavr-magistr” sxemasi bo'yicha ikki bosqichli ta'lim, shuningdek, kredit tizimining bir xilligidir. Shunday qilib, Rossiya ta'lim tizimi evolyutsion spiraldan burilish oldi: kelajakdagi kasbiy faoliyatga tor yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlashdan - ko'plab tabiiy fanlar, umumiy muhandislik va gumanitar-iqtisodiy fanlarni o'z ichiga olgan keng ta'lim yo'nalishlarigacha - fundamental (tabiiy fanlar + umumiy texnik + gumanitar) va maxsus (muhandislik) ta'limni uyg'unlashtirish orqali tegishli kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni olishga qaratilgan bitiruvchi mutaxassislarning optimal tizimini yaratishga harakat qilishgacha. Zamonaviy mutaxassisni shakllantirishda turli xil omillarni hisobga olish rus oliy kasbiy ta'limi sohasidagi bugungi til siyosatini belgilaydi. Ushbu siyosatning o'ziga xos xususiyati - nogumanitar oliy o'quv yurtlarida til o'qitish rolini, xususan, rus tilini (ona tili, chet tili va ona tili bo'lmagan sifatida) o'qitish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu narsaga oliy ta'limning barcha bosqichlari va qatlamlarida o'quv jarayoniga hamroh bo'lishi kerak bo'lgan umumiy va kasbiy madaniyat elementi sifatida qaraladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Федоров И. Б., Еркович С. П., Коршунов С. В. Высшее профессиональное образование. Мировые тенденции. (Социальный и философский аспекты) : [монография] / Федоров И. Б., Еркович С. П., Коршунов С. В. - М. : Изд-во МГТУ им. Н. Э. Баумана, 1998. - 367 с.
2. Русский язык и культура профессионального общения нефилологов. Московский государственный технический университет им. Баумана Под ред.: Романова Нина Навична . Год издания: 2008, Кол-во страниц: 312
3. Принципы и механизмы. 2002

## JIZZAXDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATINING SO'NGGI BOSQICHI HAMDA KURASH OQIBATLARI

**Rajabov Q.**

*O'zbekiston FA Tarix instituti  
professori, tarix fanlari doktori*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Samarqand viloyatida, xususan, Jizzax vohasida 1924-1926-yillarda qizil qo'shinga qarshi istiqlolchilar kurashi ko'rsatilgan. Muallif ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, zamondoshlari xotiralari asosida bu muammoga ilmiy jihatdan mutlaqo yangicha yondashgan.*

**Kalit so'zlar:** *Istiqlolchilik harakati, qo'rboshilar, milliy ozodlik kurashi, bolsheviklar, qizil askarlar, sovet rejimi, troyka, qatag'on siyosati.*

**Abstract.** *This article describes the struggle of independence fighters against the Red Army in the Samarkand region, in particular in the Jizzakh oasis, in 1924-1926. The author has taken a completely new scientific approach to this problem, based on previously unpublished archival documents, periodical press materials, and memoirs of contemporaries.*

**Keywords:** *Independence movement, commanders, national liberation struggle, Bolsheviks, Red soldiers, Soviet regime, troika, policy of repression.*

**KIRISH.** Jizzaxda 1924-yil dekabrda keyin ham sovet rejimiga qarshi qurolli kurash davom etdi. Istiqlolchilar qo'shini 1924-yil oxirida asosan mag'lubiyatga uchrasa ham, biroq vohada 1925 – 1926-yillarda ham qizil armiyaga qarshi janglar shiddatli davom etdi.

RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi huzuridagi "bosmachilik"ka qarshi kurash Markaziy komissiyasining 1925-yil 3 yanvarda bo'lgan majlisida Samarqand uyezdidagi ahvol muhokama qilindi. Byuro raisi I.A. Zelenskiy raisligida o'tgan ushbu majlisda Turkiston fronti qo'mondoni hamda OGPU favqulodda vakilining ma'ruzalari tinglandi[1].

Majlisda e'tirof etilishicha, Samarqand viloyatida "bosmachilik" siyosiy harakat sifatida asta-sekin tugamoqda, biroq o'z atrofiga eski "bosmachi kadrlar"ni to'plagan Hamroqul va Durdiboy[2] kabi qo'rboshilarning guruhlari hali ham siyosiy tusda bo'lib, birinchi navbatda, bu guruhlarni tugatish lozim. Urgutda qizil askarlarga qarshi kurashayotgan Hamroqul, Shish Vali, Mirza Polvon guruhlarini tugatish uchun Urgut jangovar rayoni harbiy harakatlarini kuchaytirish kerak[3].

Shuningdek, majlisda RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi tomonidan Samarqand obkomining Samarqand uyezdi (Urgut rayoni) va Xo'jand uyezdiga 30 nafar kommunistlardan iborat maxsus komissiya yuborish haqidagi taklifi tasdiqlandi. Bu kommunistlarni viloyat va uyezd markazlaridagi lavozimlaridan olishib, mazkur hududlarga siyosiy targ'ibot ishlarini olib borish uchun jo'natilishi belgilab qo'yildi. Obkomga mazkur kommunistlar ro'yxati harbiy qo'mondonlik va OGPU bilan kelishilgan holda bo'lishi tavsiya qilindi [4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI** Tarixdan ma'lumki, 1924-yil kuzida O'rta Osiyo respublikalarida Kreml buyrug'i bilan milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR hamda boshqa avtonom respublikalar va oblastlar tuzildi. 1925-yil aprelda O'zbekiston SSR poytaxti Buxorodan Samarqandga ko'chirildi [5].

O'zbekiston SSR tuzilishi arafasida SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Mixail Ivanovich Kalinin Toshkent, Samarqand, Buxoro, Ashxobod va Farg'ona vodiysi shaharlarida bo'ldi.

Moskvada chiqadigan “Trud” gazetasining ma’lumot berishicha, 1925-yil fevralda Toshkentdan Samarqandga maxsus poyezdda kelgan M. Kalininni vokzalda chekistlar tuz va non o’rniga kumush patnisga solingan mahalliy qo’rboshining kallasi bilan kutib olishadi. Chekistlar ko’p oylardan buyon uni ushlay olmay yurishgan, faqat 1925-yil fevral oyi boshlarida bunga muvaffaq bo’lishgan edi. Bunday sovg’a “Butunittifoq oqsoqoli”ni hayratga solmadi, u chekistlarga minnatdorchilik bildirdi[6]. Ushbu dalil sovet davlatining rasmiy rahbari (axir Kalinin bugungi tushuncha bilan aytganda o’sha paytda SSSR Prezidenti bo’lgan!) ma’naviy qiyofasi naqadar tubanligini ko’rsatish bilan birgalikda sovet hokimiyatining mintaqadagi rasmiy organlari va vakillarining shunchalar yovuz va makkorligini, ular lozim topsa terror yo’li bilan ham aholi yuragiga doimo qo’rquv va xavotir solib turganligini anglatadi.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Samarqand viloyat-shahar ijroiya komiteti raisi Mahmudov imzosi bilan 1924-yil oxirida Toshkentga, Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti (TurSIK) nomiga yo’llangan 182-telegrammada yozilishicha, Samarqand uyezdi “bosmachilari”ning boshlig’i Zikir o’ldirildi. Uning boshi Samarqandga keltirildi[7]. Bu hujjat, nazarimizda, Kalininga tuhfa qilingan “qo’rboshi kallasi” bejiz tilga olinmaganligini ko’rsatadi.

Turkiston fronti Siyosiy boshqarmasining “bosmachilik”ka qarshi kurashning holati to’g’risida 1925-yil 15 aprelda tayyorlagan ma’lumotnomasida aytilishicha, “Samarqand viloyatida mahalliy guruhlar (Said Murod, Durdiboy, Abdu Razzoq va b.)ning faolligi, Mirza Polvondan tashqari, janglarda qattiq qarshiligi kuzatilmogda. Alohida taslim bo’layotgan “bosmachilar”, ayniqsa, o’z tarkibining asosiy qismini yo’qotgan Hamroqul guruhidan, to’xtamayapti. Bu holatga milliy chegaralanish hamda uning omma o’rtasida tarqalishi ta’sir ko’rsatdi...” [8].

1925-yil 15 – 16 aprelda bo’lgan Samarqand viloyat-shahar ijroiya komiteti plenumi majlisida [9] (bu majlisda oblgorispolkomning M. O’runxo’jayev boshchiligidagi 24 nafar a’zosidan tashqari taklif qilingan 10ga yaqin kishilar ham qatnashadi) Samarqand viloyat-shahar ijroiya komiteti Prezidiumining uch oylik hisoboti[10] a) viloyatdagi siyosiy ahvol va b) sovet qurilishi va quyi apparat to’g’risida eshitaladi. Bu haqda ma’ruza qilgan M. O’runxo’jayev o’z so’zida viloyatda Samarqand oblasti Sovetlari syezdi[11] bo’lib o’tgan 14 yanvardan 10 aprelgacha bo’lgan uch oylik davrda “bosmachilik” frontida quyidagicha yutuqlar qo’lga kiritilganligini ma’lum qiladi:

“Samarqand viloyatida hozirgacha 4ta yirik “bosmachilar shaykasi” mavjud bo’lgan:

1. Mirza Polvon guruhi, 17 yigitdan iborat, Samarqand uyezdida.
2. Hamroqulbek guruhi, 30 yigitdan iborat, Samarqand uyezdida.
3. Said Murod guruhi, 18 yigitdan iborat, O’ratepa rayonida.
4. Turdiboy guruhi, 22 yigitdan iborat, Xo’jand uyezdida.

Birinchi guruh 7 aprelda qizil armiya qismlari tomonidan butunlay tugatildi va tor-mor qilindi, so’nggi jangda bu guruh o’z yetakchisi Mirza Polvon va 10 kishidan ajraldi, 1 kishi asirga olindi va 1 kishi noma’lum tomonga yashirindi.

Hamroqulbekning guruhi tarqalib ketdi hamda uning tarkibi Hamroqulbek boshchiligidagi atigi 3 kishidan iborat.

Turdiboy va Saidmurod guruhlari ham oxiriga yetkazildi: birinchisi 13, ikkinchisi 16 nafar yigitidan ajraldi.

“Bosmachilar”ning umumiy talafoti quyidagicha: 38 nafar kishi o’ldirildi, 7 nafar kishi asir olindi, o’z ixtiyori bilan 31 kishi taslim bo’ldi, 43ta ot qo’lga kiritildi, 2ta ot o’ldirildi va bittasi yarador qilindi. Bizning yo’qotishlarimiz quyidagicha: 7 nafar qizil askar o’ldirildi, ulardan 2 nafari O’zbekiston GPU ayg’oqchisi, 11 nafar qizil askar yarador bo’ldi, ulardan bittasi O’zbekiston GPU ayg’oqchisi, 17ta ot o’ldirildi, 8ta ot yarador qilindi” [12]. So’ngra qizil askarlar tomonidan qo’lga kiritilgan qurol-yarog’ miqdori: 22ta uch liniyalı miltiq, 2ta “tra” va 3ta “berdanka” rusumidagi miltiqlar, 38ta ov miltig’i, 17ta miltiq, turli rusumdagi 44ta revolver (barabanli ko’p zaryadli to’pponcha), 2ta durbin, ko’p miqdorda patron (o’q-dori) ko’rsatiladi[13].

Turkiston fronti Siyosiy boshqarmasining “bosmachilik”ka qarshi kurash to’g’risida 1925-yil 23 mayda tayyorlangan ma’lumotnomasida ko’rsatilishicha, Samarqand viloyatida aholining “bosmachilik” harakatidan o’zini chetga olishi va bir qator guruhlarining tor-mor qilinishi (xususan, Mirza Polvon) kichik qo’rboshi guruhlarining jang qilish taktikasi o’zgarishi hamda o’zining tutishiga ta’sir qilmoqda. Har bir guruh 2-3 nafar kishidan iborat kichik guruhchalarga bo’lingan holatda qishloqlarga tarqalib ketdi hamda o’zini passiv tutmoqda. Guruhlarning tarqalib ketish jarayoni davom etmoqda, ayrim yigitlar esa to’xtovsiz ravishda taslim bo’lmoqda. Aprel oyining so’nggi haftasida turli guruhlardan 8 nafar qurollangan “bosmachi” taslim bo’ldi. Hamroqulning qo’lga olingan yordamchisi Rajab Eshonning aytishicha, Hamroqulning o’zi ham taslim bo’lishni xohlamoqda.

Xo’jand jangovar rayonida butun kuchlar Said Murod guruhini tugatishga qarshi markazlashtirildi, bu guruh a’zolari ham 3-4 kishiga bo’linib ketgan, yelkasidan yaralangan Said Murodning o’zi esa 3 nafar yigiti bilan turli qishloqlarda yashirib yuribdi[14].

1925-yil 8 avgustdagi rasmiy ma’lumotlarda ko’rsatilishicha, oxirgi oylarda Said Murod va Durdiboy [Turdebay] qo’rboshilarning guruhları tugatiladi. 1 iyulda Said Murodning yordamchisi Mulla Oxun 5 nafar qurollangan “bosmachi” bilan taslim bo’ladi, Said Murodning o’zi Joygandan rayonida (O’ratepadan 8 versta uzoqda) qizil armiyaning uchar otryadlari bilan bo’lgan janglarning birida halok bo’ladi, so’ngra uning guruhidagi bir qator “bosmachilar” sovet hokimiyatiga taslim bo’ladi. Xullas, uning guruhi tugatiladi. Bu holatni chuqur o’rnashgan va tomir yoygan “Durdiboy bandit”ga nisbatan ham aytib o’tish mumkin. Qoratog’da uzoq vaqt yashirib yurgan Durdiboy 23 iyulda o’ldirildi. Shuning uchun ham hozirgi paytda Samarqand viloyati hududida kichik jinoiy guruhlar faoliyat ko’rsatmoqda, biroq Durdiboyning yordamchisi Abdulla Ponsod guruhning qolgan a’zolari bo’lgan 10 nafar kishini to’plab, alohida guruh tuzishi mumkin[15].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Turkiston fronti Siyosiy boshqarmasi xodimlari, chekistlar va chegarachilar tomonidan 1923-1926-yillarda tayyorlangan bunday hujjatlarning tahlili shundan guvohlik beradiki, mazkur davrda Samarqand viloyatida mustaqillik uchun kurash to’xtamagan. Samarqand-Jizzax qo’rboshilari va istiqloqlari bir qator janglarda mag’lubiyatga uchragan hamda ko’plab qo’rboshilar va yigitlar jang maydonlarida halok bo’lgan yoki qizil askarlarga taslim bo’lishga majbur bo’lgan bo’lsa ham ular safiga tobora yangi kishilar kelib qo’shilgan. Biroq kurash jarayonida qo’rboshilar o’z taktikalarini o’zgartirib turishgan. Ular avvalari 500 – 1000 kishilik yoki undan ham katta guruhlariga bo’lingan holatda qizil armiya qismlariga qarshi yoppasiga hujumga o’tgan bo’lsalar, kurash jarayonida guruhlar tarkibidagi yigitlar soni 100-200 kishiga, so’ngra 40 – 50 yoki 15 – 20 nafardan iborat bo’lgan. Kurashning so’nggi bosqichida vatanparvarlar 3-5 yoki 2-3 nafar kishilardan iborat kichik guruhlar tarkibida

yakka o'zlari sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishgan. Ba'zan bunday kichik guruhlar jinoiy faoliyat bilan shug'ullanib, aholidan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalarni tortib olgan.

“Samarqand uyezdi ijroiya komitetining 1923 – 1924-yillardagi faoliyati haqida hisobot” (bu hisobot 1925-yil boshlarida tayyorlangan) nomli juda muhim rasmiy hujjatning “Uyezddagi siyosiy ahvol va bosmachilikka qarshi kurash” nomli V qismida[16] Samarqand shahri va uning atroflarida, ya'ni faqat Samarqand uyezdidagi faoliyat ko'rsatgan 22 nafar qo'rboshilarning faoliyati tahlil qilinib, ular rahbarlik qilgan qurolli guruhlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Mazkur o'rinda bu hujjatdan quyidagicha parcha keltirib o'tiladi:

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** “Bosmachilik harakati pasayib bormoqda, biroq u viloyatning birorta ham rayonida va uyezdlarda tugatilmagan, hatto bu harakat Samarqand shahrining tuzem (tub musulmon) aholisi yashaydigan qismlariga ham kirib bormoqda. Hisobot davrining boshlanishida[17] uyezdda quyidagi “bosmachi shaykalari” harakat qilgan:

1. Hamroqul Rajab [Hamroqulbek], 1921-yildan faoliyat ko'rsatadi, 30 yigiti bor, ularning 75 foizi yetarli miqdorda o'q dorisi (patroni) bo'lgan kalibri uch liniyalik miltiq (vintovka) bilan qurollangan, ko'proq Darg'om rayonida, shahar atrofidagi uchastkada harakat qiladi.

2. Mirza Polvon, 1922-yili ro'yxatga olingan, 25 yigiti bor, ularning 75 foizi yetarlicha o'q-dorisi bor uch liniyalik miltiqlar bilan qurollangan.

3. Zokir Narzullayev, 1923-yil oktabrda ro'yxatga olingan, 8 yigiti bor, turli qurollar bilan qurollangan, Darg'om rayonida harakat qiladi.

4. Sariboy, 1923-yil dekabrda ro'yxatga olingan, 8 yigiti bor, 5ta uch liniyalik miltiq va 4ta revolver bilan qurollangan, Zarafshon rayonida harakat qiladi (Gadoy qo'rboshining sobiq guruhi).

5. Xoliqul, 1922-yili ro'yxatga olingan, 20 yigiti bor, ularning 50 foizi uch liniyalik miltiqlar bilan qurollangan, Panjikent rayonida harakat qiladi[18].

Yil davomida quyidagi yangi guruhlar paydo bo'ldi:

1. Rajab Eshon, 18 yigiti bor, Zarafshon rayonida harakat qiladi.

2. Roziq, 18 yigiti bor, Urgut rayonida Xoliqul bilan birgalikda harakat qiladi.

3. Usta Ismoil, 21 yigiti bor, Zarafshon rayonida harakat qiladi.

4. Iso, 7 yigiti bor, Zarafshon rayonida harakat qiladi (Sariboy qo'rboshining sobiq guruhi).

5. Mama Yusuf, guruh tarkibi noma'lum, Zarafshon rayonida harakat qiladi.

6. Yorqorayev, 20 nafar yigiti bor.

7. Ziyovuddin, 7 nafar yigiti bor.

8. Tursun Berdi.

9. Mamatqul.

10. Karim Polvon.

11. Mardi Xo'ja.

12. SHER Hayitov.

13. Rustam.

14. Zohid Sobir.

15. Aminbobo.

16. Arab [Turdi Arab].

17. Burhon. [19]

Bu guruhlardan hozirgi paytda[20] faqat quyidagi 8ta guruh mavjud bo'lib, faoliyat ko'rsatmoqda:

1. Hamroqul Rajabov.

2. Mirza Polvon.

3. Xoliqul.

4. Roziq.

5. Rajab Eshon.

6. Usta Ismoil.

7. Iso.

8. Mama Yusuf.

Qolgan 14ta guruh qurol yordamida tarqatib yuborildi yoki ular tashviqot yordamida o'z ixtiyorlari bilan taslim bo'lishdi. Bundan tashqari Ziyovuddin, Mamatqul, Ochilbek, Karim Polvon, Zohid Sobir, Aminbobo, Zokir, Turdi Arab kabi qo'rboshilar o'ldirildi" [21].

Shu narsa xarakterli holki, sovet hokimiyatining mazkur rasmiy hujjatida yuqorida nomlari tilga olingan "siyosiy tayanch" kasb etgan qo'rboshilar guruhlaridan tashqari asosan kichik bezori va talonchi guruhlar to'g'risida ham quyidagicha so'z boradi:

"Yo'l-yo'lakay asosan turli talonchilik va bosqinlar uyushtirayotgan hamda hech qanday siyosiy tayan va asos kasb etmagan 9ta kichik qaroqchi guruhlarini tugatildi. Ularning barchasi tashviqot natijasida o'z ixtiyori bilan taslim bo'ldi. Bu guruhlar (shaykalar) quyidagilardan iborat:

1. Eshon Xo'ja.

2. Ashur.

3. Toji.

4. Kenja.

5. Tog'ay.

6. Boymurod.

7. Egamberdi.

8. Eshquvvat.

9. Tursun Jo'rayev" [22].

Aynan ushbu guruhlardan, ya'ni ayrim qaroqchi va talonchilardan bolsheviklar o'z manfaatlari yo'lida foydalanib, ularni sovet rejimiga qarshi kurashayotgan qo'rboshilar guruhlariga gijgijlagan hamda bunday jinoyatchilar qo'li bilan qurolli harakatni yo'qotishga intilgan. Bu holatni ko'plab rasmiy hujjatlar tasdiqlaydi.

Yuqorida to'xtab o'tilgan hisobot hujjatida ta'kidlanishicha, sovet hokimiyati Samarqand viloyatida, xususan, Samarqand uyezdida "bosmachilik" harakatini tugatish uchun katta harakat qilgan. "Bosmachilik"ka qarshi kurash ishlarining tepasida Samarqand uyezdida bo'yicha maxsus vakil o'rt. MIRJAMOLOV turib, u barcha vaqt bu ishlarga, ya'ni ham faol harbiy harakatlarga, ham tashviqot ishiga rahbarlik qilgan. Uning quyidagi o'rinbosarlari rayonlar[23] bo'yicha harakat qilgan: Zarafshon rayonida – Mirzaxo'ja O'RUNXO'JAYEV o'z xodimlari Narziqul Yo'ldoshev, Ma'mur Utashev va Rizo Qurbonov bilan; Urgut rayonida – Abduraim ABDUSHUKUROV, so'ngra AZIMBEKOV va nihoyat O'RUNXO'JAYEV o'z xodimlari Mavlonov, Rustam Egamberdiyev, Sa'dulla Jo'raboyev va Xolbotirov bilan; Darg'om rayonida –MAMEDOV o'z xodimlari Haqberdi Odilov,

Bo'ronov, Mulla Sulton Haqberdiyev va Rustam Egamberdiyev bilan, Panjikent rayonida Vakilning o'rinbosari bo'lmagan, bu rayonda vakilning o'zi kurashga rahbarlik qilgan[24].

1924-1925-yillarga tegishli sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida ko'rsatilishicha, bu hujjatlarning aksariyati bugungi kunda Samarqand viloyati davlat arxivida saqlanadi, bu davrda Samarqand viloyatida "bosmachilik va banditlik" bilan shug'ullangan ko'plab "bosmachilar" taslim bo'lgan. Taslim bo'lganlarning to'liq ro'yxatlari arxivning bir qancha "ishlari"da maxsus keltiriladi. Ana shunday hujjatlarning birida yozilishicha, bu hujjat 1924-yilda o'zlari taslim bo'lgan "bosmachilar" reyestri deb nomlangan, 30 nafar kishi (Hamdam Mirzaboyev, SHermuhammad Xolmuxamedov, Pirimqul Polvonov, Abdug'affor Jo'raboyev va b.)ning ismi-sharifi, yoshi, qaysi viloyat va qishloqlarda harakat qilganligi, qurol turi hamda qaysi qo'rboshining guruhida harakat qilganligi ko'rsatiladi. Mazkur hujjat o'zbek tili (arab imlosida) va rus tilida keltiriladi[25]. Boshqa bir ro'yxatda Samarqand uyezdida faqat Sariqboy qo'rboshi (u Sariboy qo'rboshi sifatida mashhur bo'lgan) guruhida faoliyat ko'rsatgan 15 nafar taslim bo'lgan yigitlarning nomlari ko'rsatiladi[26].

"1924-yil 25 apreldan 2 iyungacha bo'lgan muddatda taslim bo'lgan bosmachilar va kichik bosqinchilar ro'yxati" deb nomlangan boshqa bir ro'yxatda esa 33 nafar kishilarning nomlari keltiriladi[27]. Keyingi ro'yxatlar esa taslim bo'lgan "bosmachilar"ning qurol-yarog'iga taalluqli bo'lib, unda Samarqand uyezdida sovet hokimiyati tomonidan qo'lga olingan har bir qo'rboshi yoki yigitdan olingan qurollar ustida so'z yuritiladi[28].

Aynan ushbu voqealar Samarqanddagi inqilobiy jarayonlarning faol qatnashchisi hamda qo'rboshilarni makkorlik bilan yo'qotishda nom chiqargan Mirzaxo'ja O'runxo'jayev tomonidan keyinchalik yozilgan "Unutilmas kunlar" nomli xotiralarda quyidagicha aks etgan: "Normat bosmachi tor-mor qilingach, Samarqand shahar va uyezd partiya tashkilotlari menga Zarafshon rayonida bosmachilarning qolgan-qutganini ham bitirish vazifasini topshirdilar. Zarafshon rayoni sostavida 10ta volost bo'lib, unga Tuyatortar, Kabut, Qoraqalpoq, Polvonariq, Halvoyi, Eshimoqsoq, Chelak, Jo'yidevona, Shahob, Dahbed, xullas, hozirgi Jomboy, Bulung'ur, Narimonov, Payariq va Oqdaryo rayonlari territoriyasi kirardi...

Endi Sariboy qo'rboshini yo'q qilish vazifasi ko'ndalang bo'lib turardi. Men o'sha paytda Samarqand oblast harbiy Soveti va oblast Soveti ijroiya komitetining raisi vazifasida ishlardim. O'sha paytda Samarqandda turgan 2-otliq diviziya komandiri Kalmikov[29] va GPU raisi Shinord bilan birgalikda Sariboy hamda Mardixo'ja shaykalarini tor-mor keltirish planini ishlab chiqdik. Mardixo'ja shaykasiga qarshi kurashni tashkil etish Ternapolskiy[30] va Zelenskiy o'rtoqlarga, Sariboy shaykasini bitirish rezervdagi otliq otryad komandiri N.F. Noskov, Narziqul Yo'ldoshev, Haqberdi Polvon Odilovlarga topshirildi. Men har ikkala gruppaga rahbarlik qilardim...

Men otryadni uch qismga bo'lib, Sariboy ustiga hujum boshlash haqida buyruq berdim. Otryadlar Sariboy shaykasini o'rab oldi. Ikki o'rtada urush boshlandi, Sariboy og'ir yarador bo'lib, otdan qulab tushdi, o'z yigitlari bilan taslim bo'lishga majbur bo'ldi" [31].

Bu qo'rboshilar taslim bo'lsa ham, Jizzax va Samarqand uyezdlariga qo'shni hududlarda, xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 1925 - 1926-yillarda ko'plab qo'rboshilar guruhlari qizil armiyaga qarshi janglarda faol qatnashgan. Masalan, 1926-yil 24 oktabrda SHerobod shahrida[32] bo'lgan Surxondaryo viloyati "bosmachilik"ka qarshi kurash kengashi (oblbasmsoveshaniye)ning maxsus yig'ilishida Validov (O'zbekiston

Kompartiyasi Surxondaryo obkomi mas'ul sekretari o'rinbosari), SHEvsov (Surxondaryo obkomi raisi), Isaxo'jayev (Surxondaryo viloyati ijroiya komiteti raisi o'rinbosari), Nikolayev (Surxondaryo viloyati OGPU boshlig'i), Bronislavskiy (7-maxsus brigada boshlig'i), Fadin (7-otliqlar brigadasi komandiri), Rahimboyev (Surxondaryo viloyati militsiyasi boshlig'i) qatnashib, unda Fedinning "Surxondaryo viloyatida siyosiy ahvol to'g'risida ma'ruzasi" [33] muhokama qilindi. Dokladda asosiy urg'u bu paytda sovet hokimiyati tomonida turib, o'zining sobiq safdoshlari bo'lgan qo'rboshilarga qarshi jang qilayotgan bo'sunlik Eshniyoz Amin (Eshniyoz komandir) va unga munosabat xususida so'z boradi. Majlisdan qatnashgan Nikolayevning fikricha, bugungi kunda Eshniyoz sovet hokimiyati va qizil armiyaga xalaqit bermoqda. Biz Eshniyoz bilan mushuk-sichqon o'yinini qayta-qayta o'ynab, pirovardida uni yutib chiqdik. U bizning rahbarligimizda faoliyat ko'rsatib, aholi o'rtasida katta nufuzga erishdi. Men uning faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman: hokimiyatni suiste'mol qilish, odamlarni tahqirlash va haqorat qilish hamda xo'rlash, poraxo'rlik, turli yolg'on-yashiq ma'lumotlar, "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlash, "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlaganlarni turli maqsadlar uchun yashirish, kafando'zlik va talonchilik, noqonuniy soliq va tushumlar to'plash, sovet komissarlari nomidan soxta maktublar tayyorlash hamda ig'vogorona xabarlarini tarqatish. Bularning hammasi haqqoniy dalillar bilan tasdiqlanmoqda. Masalan, Dug'oba qishlog'i Soveti vakili nomiga Eshniyoz tomonidan yozilgan maktubning asl nusxasida aytilishicha, ekin ekish kampaniyasi barbod qilinsa ham u aybdorlarni jazolamaydi yoki ulardan 100 rubl miqdorida jarima undirilmaydi. Ikkinchi dalil: Said Mengliqulovga u 60ta daraxt kesishiga ruxsat berdi. Uchinchi dalil: Qorayevni qishloq Soveti (selsovet) raisligidan olib tashlab, uning o'rniga Xo'jaqul oqsoqolni tayinladi. Bunga o'xshagan misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ayrımlarning aytishicha, hozir Eshniyozga tegmaslik kerak, uni ushlasak xato bo'ladi. Aslini olganda u bilan birgalikda bir necha kishini tutish kerak[34].

Bu majlisdan qatnashgan SHEvsov quyidagicha fikr bildiradi: "Ayni paytda harbiy qo'mondonlik mulohazalarini hisobga olish lozim. Fedin aytgan ishlarni oldinroq qilish kerak edi. Hozirgi paytda bunday qadam tashlash tavakkalchilikdan boshqa narsa emas. Chunki viloyatda siyosiy vaziyat murakkab bo'lib, bizga dushman bo'lgan guruhlar "bosmachilik"ka qarshi kurashni mahalliy hokimiyatga topshirib qo'ysa, bu holat bizning foydamizga ishlamaydi. Shuning uchun ham kichik jinoyatchi banditlar bilan yirik guruhlar o'rtasidagi farqni aniq ajratish kerak, albatta, militsiya kichik jinoyatchi guruhlariga qarshi kurash olib borishi lozim" [35].

Bu majlisdan Eshniyoz faoliyatiga keskin qarshi chiqqan Isaxo'jayev fikrlariga Validov tomonidan qisman e'tiroz bildirilib, Eshniyoz avval eng yaxshi xodim bo'lgan, hozir esa eng yomon xodim degan fikrlarni o'ylab ko'rishni, Eshniyozni hozir zararsizlantirish mumkin emasligini, harbiy qismlar "bosmachilik"ka qarshi kurashni militsiyaga topshirishni mo'ljallayotganligini, biroq militsiya va sovet apparati bunga tayyor emasligini ta'kidlaydi. Balki Sovetlarga qayta saylov o'tkazish yoki Eshniyozni Boysundagi ishidan SHERobodga o'tkazish lozim. Biz hozir Eshniyozning mavqeini pasaytirib, uni siqib chiqarsak katta siyosiy xatoga yo'l qo'yamiz, biroq uni jo'yali sabablarsiz viloyat markaziga chaqirsak, ertaga bu yerga uni quvvatlab 1000 kishi keladi. Uni Samarqandga jo'natish kerak, bu paytda GPU xodimlari aholi o'rtasida uning nufuzini tushiruvchi ishlar bilan shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari Eshniyozning ko'ngillilar otryadiga siyosiy xodimlar yuborish lozim[36].

Fedin majlisdan qilgan yakunlovchi so'zida Eshniyoz haqida to'xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: "Bu masala oldin ko'tarilmagan bo'lib, butun materiallar qayerdadir to'xtab qolgan.

Mening fikrimcha, bu materiallarni yana 7-8 oy to'ldirib turib, so'ngra Eshniyozni javobgarlikka tortish to'g'ri emas. Bunga men qarshiman hamda bu masala bo'yicha o'z fikrimda qolaman. Men masalani bunday qo'yaman: Eshniyoz otryadini tarqatib yuborib, faqat 10 kishini o'z-o'zini himoya qilish uchun qoldirish mumkin. Eshniyozning o'zi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullansin, men o'zaro suhbatlardan shuni bildimki, u g'alla yetishtirish bilan shug'ullanmoqchi[37].

Nikolayev bu fikrlarga qo'shimcha qilib, Eshniyozni turli sabablar ko'rsatib albatta sudga berilishi zarurligini, chunki u bolsheviklar siyosatiga zarar yetkazganligi hamda mahalliy hokimiyat bilan hisoblashmasligini aytib, o'zini ulardan baland qo'yishini ta'kidlaydi. Uni yo'limizdan olib tashlash kerak, biroq Samarqandga yuborib emas, bu holat uning obro'-e'tiborini yanada kuchaytiradi. Menimcha bu masalani GPU tezroq hal qilishi hamda Eshniyozni qamoqqa olish haqidagi g'oyalarni va bunday chaqiriqni mahalliy aholi fikri sifatida ko'rsatib, o'z takliflarini obkomga taqdim etishi kerak[38].

Surxondaryo viloyatida, xususan, Boysunda sovet hokimiyatini mustahkamlashda katta ishlarni qilgan qizil komandir Eshniyoz Amin oqsoqol hamda "bosmachilar" taqdirini hal qilgan ushbu majlisda quyidagicha qaror qabul qilinadi:

"1. Kichik jinoyatchi banditlarga qarshi kurashga javobgarlik jinoyat qidiruvchi va militsiya zimmasiga yuklansin.

2. Jinoyat qidiruvchi va militsiyaning zaifligi sababli, Nikolayev, Isaxo'jayev va Raximboyev kabi o'rtoqlarga militsiya va jinoyat qidiruvining holati to'g'risidagi masalani zudlik bilan hal qilish uchun Obkom yig'ilishi muhokamasiga qo'yish topshirilsin...

3. Eshniyoz haqidagi masalani qayta ishlash uchun o'rt. Nikolayevga topshirilsin hamda u Obkom sekretariati majlisida aniq takliflar bilan chiqib, ma'ruza qilsin.

Komissiyaning ishlash muddati joriy-yilning[39] 1 noyabrigacha belgilansin" [40].

Darhaqiqat, 1926-yil noyabrdan keyin oradan ko'p o'tmay Eshniyoz Amin Yunusov sovet hokimiyati tomonidan dastlab o'z vazifasidan olib tashlandi. Kolxoz tuzumi davrida u "Qahramon" kolxozining tuzilishida bosh bo'ldi. 1930-yili Qumqo'rg'on arig'ini qazish uchun ketgan Eshniyoz qamoqqa olindi. Surxondaryo okrug sudi 1931-yil iyulda Eshniyozni otish jazosiga hukm qildi, biroq VKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi huzuridagi maxsus troyka o'lim hukmini 1932-yil avgustda 10-yil qamoq jazosi bilan almashtirdi[41]. Eshniyoz Magadan o'rmonlariga jo'natildi. Eshniyoz Aminning o'zi Boysun tumanidagi Qo'shbuloq qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, u amirlik davrida qishloq oqsoqoli lavozimida ishlagan. Buxoro amirligi tugatilgach, u dastlab qizil askarlarga qarshi mustaqillik kurashida qatnashgan. Biroq keyinchalik sovet hokimiyati tomoniga o'tib, Boysun, SHerobod, Denovda faoliyat ko'rsatayotgan turli qo'rboshilarni, xususan, 1925-yil 30 dekabrda Salombek qo'rboshi[42] (Salom Kalta) guruhini tugatishda jonbozlik ko'rsatgan edi. U o'zi tug'ilgan Qo'shbuloq qishlog'ida sovet hokimiyatining oqsoqoli bo'ldi. Biroq sovet hokimiyatiga ana shunday sadoqat bilan xizmat qilgan Eshniyoz Magadanda halok bo'ldi[43]. U qamoqqa olingunga qadar ko'ngilli musulmon otryadining komandiri va Boysun militsiyasining boshlig'i bo'lib ishlagan. Eshniyoz Aminning hayoti ham Samarqandda faoliyat ko'rsatgan ko'plab qo'rboshilar singari jang maydonida dushman o'qidan emas, balki chekistlar va ayrim sotqinlarning xatti-harakatlari natijasida yovuzlik bilan to'qilgan tuhmat va makr natijasida o'z yurtidan olisda fojiali tugadi. Tarixning bunday achchiq saboqlarini biz unutmasligimiz kerak.

Sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida 1925-yil 1 sentabr sanasi Samarqand viloyatida “bosmachilik” harakati tugatilgan kun sifatida qayd etilgan. “Bosmachilik”ka qarshi kurash a’zolaridan tashqari O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotibi V.Ivanov, O’zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Ko’mitasi raisi Y. Oxunboboyev va boshqalar bu munosabat bilan Samarqandda o’tkazilgan katta tantanada qatnashishdi[44]. Bu paytda Samarqand shahri yangi tuzilgan O’zbekiston SSRning poytaxti bo’lgan.

Samarqand viloyati Sovetlari ijroiya komitetining 1925-yilda o’tkazilgan I va II syezdlari o’rtasidagi hisobot hujjatda ko’rsatilishicha, 1925-yil 1 fevraldan sentabr oyi boshlarigacha “bosmachilar”dan 21ta beshotar miltiq, 1ta inglizcha miltiq, 2ta berdanka, 10ta to’pponcha, 5ta mauzer, 2ta qilich, 43ta ot, 2ta binokl va ko’p miqdorda o’q-dori o’lja olingan. Shuningdek, ular tomonidan yashirib qo’yilgan katta miqdordagi qurol-yarog’ ham topib olingan. Bundan tashqari tushuntirish ishlari natijasida taslim bo’lgan “bosmachilar”dan 34ta beshotar miltiq, 2ta inglizcha miltiq, 4ta berdanka, 36ta har xil to’pponcha va boshqa qurol-aslahalar, bir necha ming o’q olindi[45].

Biroq 1925-yil sentabrda keyin ham Samarqand viloyatida qizil armiyaga qarshi istiqlochlilar shafqatsiz janglar olib borishdi. Buni ko’plab rasmiy hujjatlar va arxiv ma’lumotlari tasdiqlaydi.

VKP(b) MK Bosh kotibi I.V. Stalin hamda SSSR Revvovensoveti raisi K.YE. Voroshilovning maxsus topshirig’i bilan O’rta Osiyo respublikalarida “bosmachilik” harakatini butunlay tugatish uchun Rossiyadagi fuqarolar urushining qahramoni, taniqli sarkarda Semyon Mixaylovich Budyonniy (1883-1973) Toshkentga 1926-yil mart oyida yuborildi. S. Budyonniy 1926-yil mart-avgust oylarida O’zbekiston SSR va Turkmaniston SSR hamda Tojikiston ASSRda bo’ldi. U Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Farg’ona, Stalinobod (hozirgi Dushanbe), Ashxobod shaharlarida Turkiston fronti qo’mondonligi hamda VKP(b) MK O’rta Osiyo byurosi rahbariyati, O’zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston Kompartiyalari mas’ul kotiblari ishtirokida “bosmachilik” harakatiga qarshi kurashuvchi maxsus kengashning qator yig’ilishlarini o’tkazdi. Ana shunday yig’ilishlardan biri 1926-yil 31 mart kuni Samarqand shahrida bo’lib, unda S.M. Budyonniydan tashqari Turkiston fronti qo’mondoni K.A. Avksentyevskiy hamda VKP(b) MK O’rta Osiyo byurosi mas’ul kotibi I.A. Zelenskiy hamda O’zbekiston SSR va Samarqand viloyati rahbarlari qatnashib, unda viloyatda “bosmachilik” harakatini tez va qisqa kunlar ichida tugatish vazifasi qo’yildi[46]. O’zbekiston SSR MIK Prezidiumi tomonidan S.M. Budyonniy “bosmachilik” harakatini tugatishdagi faol ishtiroki uchun O’zbekiston SSRning Mehnat Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi.

SSSR Revvovensovetining 1926-yil 4 iyundagi qarori bilan Turkiston fronti tugatilib, uning asosida O’rta Osiyo harbiy okrugi tashkil qilindi[47]. O’rta Osiyo harbiy okrugi jangchilari istiqlochlilarga qarshi kurashni avj oldirib yubordi. Umuman olganda, 1926-yil oxirida Samarqand viloyatida, jumladan, Jizzax uyezdida istiqlochlilik harakati butunlay mag’lubiyatga uchradi.

Jizzax va Samarqandda qurolli istiqlochlilik harakatining mag’lubiyatga uchrash sabablari hamda kurash saboqlari nazarimizda quyidagicha bo’lgan:

Birinchidan, Turkiston mintaqasidagi istiqlochlilik harakatining birinchi davri (1918 – 1924 y.) tugagandan so’ng, 1925-yildan boshlab Samarqand viloyatida sovet rejimiga qarshi ommaviy jang harakatlari bo’lmadi.

Ikkinchidan, qurolli harakatning ikkinchi davri (1925 – 1935 y.) boshlanganda Samarqand va Jizzax hududi avvalgi davrda bo’lgani singari istiqlochlilik harakatining muhim markazlaridan

biri emas edi. Bu paytda qurolli harakatning asosiy markazi faqat Sharqiy Buxoro va Xorazm vohasi hududlari bo'lib qoldi.

Uchinchidan, 1924-yil oxirida O'rta Osiyo respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish hamda 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR va boshqa ittifoqdosh hamda avtonom respublikalar va oblastlarning tashkil etilishi natijasida Jizzax va Samarqanddagi istiqloqlilik harakati ham o'zining ommaviylik xususiyatini yo'qotib bordi. Xalq ommasining asosiy qismi (dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar va b.) tomonidan endilikda qurolli harakat avvalgidek qo'llab-quvvatlanmay qoldi.

To'rtinchidan, Rossiya-Polsha urushi (1919-1921) hamda Rossiyada fuqarolar urushining 1922-yil oxirida asosan tugashi natijasida sovet Rossiyasining (1922-yil 30 dekabrda Sovet Ittifoqining) katta miqdordagi harbiy kuchlari Turkistonga tashlandi. 1923-1925-yillarda Samarqand va Jizzax qo'zg'olonchilarining asosiy kuchlari qizil armiya tomonidan tor-mor qilindi. Viloyatdagi so'nggi qo'rboshilar guruhlarini 1926-yilda tugatildi.

Beshinchidan, sovet davlati va kommunistik partiya istiqloqlilik harakatini butun xalq ommasi ko'z o'ngida "bosmachilik" harakati sifatida ko'rsatib, ularga qarshi qaratilgan juda katta tashviqot va targ'ibot ishlarini olib bordi. Sovet hokimiyatining joylardagi partiya, sovet, xo'jalik va harbiy organlari butun e'tiborni qo'zg'olonchilarga qarshi kurashga qaratib, eng avvalo ayyorlik va makkorlik yo'li bilan kurash rahbarlari bo'lgan qo'rboshilarni yo'qotishga erishdi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, Samarqand-Jizzax hududida sovet rejimiga qarshi qurolli harakatga tub xalqlar orasidan chiqqan harbiy qo'mondonlar – qo'rboshilar rahbarlik qildi. Samarqand-Jizzax qo'rboshilarining ko'pchiligi siyosatni yaxshi tushungan, harbiy ilmdan xabardor, o'zi tug'ilib o'sgan va faoliyat ko'rsatgan hududda katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan kishilar edi. Ochilbek va Bahrombek singari asosiy qo'rboshilar o'z davrida Samarqanddagi jadid maktablarida o'qigan, rus tilini ham yaxshi biladigan, dunyo ko'rgan qo'mondonlar bo'lib, ular mahalliy aholini bolsheviklar va qizil armiyaga qarshi kurashga ko'tara oldi. Ahmad Zaki Validiyning Buxorodan Samarqand va Jizzaxga kelishi hamda "Turkiston Milliy Birligi" tashkiloti a'zolarining viloyatda qo'rboshilar huzurida siyosiy maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan qurolli harakat yanada kuchayganligini, uning "siyosiy tayanchi va asosi" mavjudligini aytib o'tish lozim.

Sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida ham ko'rsatilishicha, viloyatda "siyosiy tus va mazmun"dagi qo'rboshilardan tashqari ayrim kichik jinoyatchi guruhlar ham faoliyat ko'rsatib, ular asosan aholini talash va zo'rlash, qarshilik qilganda o'ldirish bilan shug'ullanganlar. Bunday jinoyatchi bosqinchi guruhlar to'g'risida ham arxiv hujjatlarining tahlili orqali ayrim ma'lumotlar ko'rsatib o'tildi.

Jizzax va Samarqandda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning so'nggi bosqichi (1925 – 1926-yillar)da viloyat hududida o'nlab qo'rboshilar guruhlarini faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda ham samarqandliklar va jizzaxliklar qizil armiya qismlariga qarshi mustaqillik kurashini davom ettirganlar. Biroq Moskvadan doimiy ravishda yuborilgan yangidan-yangi harbiy qismlar yordamida Turkiston fronti jangchilari Samarqand va Jizzax istiqloqlilariga qarshi so'nggi zarbani berishdi. Bu orada Turkiston fronti O'rta Osiyo harbiy okrugiga aylantirilib, 1926-yil bahori va yozida O'rta Osiyo respublikalarida "bosmachilar"ga qarshi kurashga rahbarlik qilish uchun taniqli sovet harbiy sarkardasi S.M. Budyonniy bu yerga yuborildi. U Toshkent, Buxoro va Samarqandda bo'lib, Kremlning vakolatli vakillari,

respublika va mahalliy rahbarlar oldiga qurolli harakatni tezroq tugatish vazifasini qo'ydi. Sovet hokimiyati va harbiy qo'mondonlik tomonidan ko'rilgan ana shunday qat'iy va shafqatsiz chora-tadbirlar natijasida 1926-yil oxirida Samarqand va Jizzaxda istiqloqlilik harakati butunlay mag'lubiyatga uchradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). Mas'ul muharrir: akademik Azamat Ziyo. – Toshkent: Fan, 2024. 417-539-betlar; O'sha muallif. O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Ikkinchi jild (1939-2000). Mas'ul muharrir: akademik Azamat Ziyo. – Toshkent: Fan, 2024. 720 bet.
2. Bu o'rinda Durdiboy emas, Xo'jand uyezdida harakat qilgan Turdiboy qo'rboshi ko'zda tutilgan.
3. Pogranichniye voyska SSSR. 1918 – 1928. Sbornik dokumentov i materialov. Otvetstvenniye sostaviteli: YE.D. Solovyev i A.I. Chugunov. – Moskva: «Nauka», 1973. – S. 609.
4. Pogranichniye voyska SSSR. 1918 – 1928. –S. 609.
5. Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). To'ldirilgan va qayta ishlangan 6-nashri. –Toshkent: "O'zbekiston", 2015. – B. 188.
6. Jelezniy feniks // «Trud-7» (Moskva), 12 sentabrya 1997 g.
7. O'zbekiston Milliy arxivi, R-25-fond, 1-ro'yxat, 1754-ish, 28-varaq.
8. Pogranichniye voyska SSSR. 1918 – 1928. –S. 619.
9. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 3-4-varaqlar.
10. Bu o'rinda 1925-yil yanvar-mart oylari ko'zda tutilmoqda.
11. Bu syezd 1925-yil 14 yanvarda bo'lib o'tgan edi.
12. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 3-4-varaqlar.
13. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 4-varaq.
14. Pogranichniye voyska SSSR. 1918 – 1928. –S. 628.
15. Pogranichniye voyska SSSR. 1918 – 1928. –S. 641.
16. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 30-34-varaqlar.
17. Bu yerda 1923-yilning boshlari ko'zda tutilmoqda.
18. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 30-varaq.
19. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 30-varaq va uning orqasi.
20. Bu o'rinda 1925-yil boshlari ko'zda tutilmoqda.
21. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 30-varaq va uning orqasi.
22. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 30-varaqning orqasi.
23. Bu paytda Samarqand uyezdi "bosmachilik"ka qarshi kurashuvchi quyidagi to'rtta jangovar rayonga bo'lingan edi: Zarafshon, Darg'om, Urgut va Panjikent rayonlari.
24. Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 31-varaq.
25. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 470-473-varaqlar.
26. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 480-varaq.
27. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 483-484-varaqlar.

28. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 550-554-varaqlar.

29. Sergey Vasilyevich Kalmikov (1902 - ?) – Turkiston mintaqasida qo'rboshilar guruhlariga qarshi kurashgan qizil armiya komandiri va chekisti. Davlat xavfsizligi mayori (1942), 3-rang militsiya komissari (1943). U Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyati, Buxoro va Xorazmda istiqloqlolchilarga qarshi kurashgan. Bundan tashqari u O'zbekiston SSR NKVD Xorazm okrugi UGB boshlig'i (1936 – 1938), Samarqand viloyati UNKVD boshlig'i (1938 – 1939) lavozimlarida ishlab, O'zbekistonda sovet rejimining qatag'on siyosatini olib bordi. 1939-yil 28 avgustda xizmatdan butunlay bo'shatildi. U "bosmachilar"ga qarshi faol kurashganligi uchun O'zbekiston SSRning "Mehnat Qizil bayroq" ordeni (1932), SSSRning 2 marta "Qizil Yulduz" (1937, 1943), "Qizil Bayroq" (1945) ordenlari bilan mukofotlandi. Iste'foga chiqqach, Turkistondagi qo'rboshilar faoliyati buzib ko'rsatilgan kitoblar yozish bilan shug'ullandi. Xususan, uning Farg'ona vodiysi qo'rboshilari (SHermuhammadbek va b.) haqidagi tuhmat va yolg'on fikrlarga to'la "Qur'on va mauzer" nomli roman-xronikasi turli nomlar bilan rus va o'zbek tillarida Toshkentdagi "O'zbekiston" nashriyotida katta tirajda qayta-qayta chop etildi hamda xalqimiz ongiga "zolim bosmachi va qo'rboshi" obrazi singdirildi. Bu haqda qarang: Kalmikov S. Koran i mauzer. Roman-xronika. – Tashkent: «Uzbekistan», 1968. – 512 str.; Uning o'zi. Qur'on va mauzer. Tuzatilgan nashri. Ruschadan A. Abduqodirov tarjimasini. –Toshkent: "O'zbekiston", 1973. – 576 bet; Uning o'zi. Sdavayte mauzeri, kurbashi! Istoriko-revolyutsionniy roman. 2-oye izdaniye. –Tashkent: "Uzbekistan", 1989 i dr.

30. Bu o'rinda Samarqand viloyati va Sharqiy Buxorodagi qizil armiya komandirlaridan biri Mixail Vavilovich Tripolskiy ko'zda tutilmoqda.

31. O'runxo'jayev M. Unutilmas kunlar (Memuarlar). Toshkent: O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1961. –B. 113 – 114, 117, 119.

32. Bu davrda SHerobod shahri Surxondaryo viloyatining markazi bo'lgan. Viloyat markazi keyinchalik Termiz shahriga ko'chirilgan.

33. Surxondaryo viloyati davlat arxivi huzuridagi Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 76-78-varaqlar.

34. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 78-varaq.

35. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 77-varaq.

36. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 77-varaq.

37. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 77-varaq.

38. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 76-varaq.

39. Bu o'rinda 1926-yil 1 noyabr ko'zda tutilmoqda.

40. Denov tumanlararo davlat arxivi, 6-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 75-76-varaqlar.

41. Xolmirzayev Sh., Usmonov T. Ko'chki (esse, pyesa, qissalar). –Toshkent: "Yosh gvardiya", 1990. –B. 222 – 223.

42. Konets kurbashi Salyama // "Krasnaya Zvezda" (Tashkent), 11 yanvarya 1926 g.

43. O'zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan 1975-yil 20 oktabrda Eshniyoz Yunusov (vafotidan so'ng) oqlandi.

## ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ТЕМЫ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ И СОЦИАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ПРОЖИВАНИЯ ЖИТЕЛЕЙ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА В 1985-2021 ГОДАХ

**Пардаев А. А.**

доцент Туронского университета  
кандидат исторических наук

**Абстракт.** Известно, что в годы независимости в целях улучшения условий жизни граждан, прежде всего, была проведена значительная работа по созданию необходимых условий для жизнеобеспечения, в том числе по обеспечению населения новыми рабочими местами, жильем, здравоохранением, объектами бытового обслуживания, школы, детские сады и т.д. В данной статье анализируются источники повседневной жизни и социальные условия жизни жителей Кашкадарьинского оазиса.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Кашкадарьинский оазис, архивные документы, статистический сборник, повседневная жизнь, периодическая печать, общественная жизнь, демографический процесс, занятость населения, малый бизнес, трудовые ресурсы.

**ВВЕДЕНИЕ.** Изучение новых тенденций в мировой историографии важно для решения актуальных задач, стоящих перед исторической наукой Узбекистана. Одним из таких новых направлений является направление «история повседневности», предметом которого является изучение повседневной жизни человека в различных историко-культурных, политических, этнических и конфессиональных контекстах.

изучение быта и социальных условий жизни жителей Кашкадарьинского оазиса в 1985-2021 годах является одной из актуальных задач.

**АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ.** В 1985-2021 годах источники играют важную роль в раскрытии сущности быта и социальных условий жизни жителей Кашкадарьинского оазиса. С этой точки зрения источниковую базу темы исследования можно условно разделить на следующие группы:

1. Архивные документы и материалы.
2. Статистические сборники.
3. Сборники опубликованных документов и материалов.
4. Материалы периодической печати.
5. Полевые этнографические материалы.

**МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ.** При написании исследования широко использовались материалы Национального архива Республики Узбекистан, Кашкадарьинского областного государственного архива, областных и районных архивов.

В частности, Министерство культуры Республики Узбекистан (фонд М-7), Министерство народного образования Республики Узбекистан (фонд М-26), Министерство культуры и спорта Республики Узбекистан ( фонд М-38), хранящийся в Национальном архиве Узбекистана (МА УзР), использовано Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан (М-130-фонд). В фонде М-26 проведены работы в сфере Министерства народного образования Республики Узбекистан, состояние школ в областях и районах, в том числе количество выпускников Каршинских педагогических и Шахрисабзских педагогических образовательных учреждений в г.

Приводятся подробные сведения о Кашкадарьинской области в 1991 году, их занятости, преподаваемых в школах предметах иностранного языка и численности учителей [1].

Управление по делам культуры правительства Кашкадарьинской области Министерства культуры Республики Узбекистан (фонд С-390), (фонд М-687), Управление областного социального обеспечения (фонд 142), Управление здравоохранения горисполкома Кашкадарьинской области, принадлежащие Государственному архиву Кашкадарьинской области, фонд С-193), Кашкадарьинское областное управление народного образования (фонд С-249), (Фонд М-703), Областное управление статистики (Фонд 285), Кашкадарьинское областное управление по делам культуры и спорта (Фонд 567), Областное управление среднего специального образования (Фонд 728), Каршинский государственный университет (Фонд 683), Сопутствующие документы на местах хранятся в Институте противоинженерной экономики (фонд 538), Ташкентском институте Ахбобротских технологий (фонд 658) и были использованы материалы.

В частности, в документах Управления по делам культуры Кашкадарьинской области Министерства культуры Республики Узбекистан, хранящихся в фонде М-687, библиотеки, дворцы культуры, парки отдыха, культурно-просветительские мероприятия проводимые на региональном уровне, были выпущены в обращение впервые.

Кроме того, широко использовались отчеты управления здравоохранения Кашкадарьинского облисполкома, входящего в состав фонда С-193 в 1986-1990 годах, мероприятия, проведенные во всех районах по заболеваемости в области, информация о решениях совета директоров. в исследовании.

Также в документах Кашкадарьинского областного управления народного образования, хранящихся в фонде М-703, отражена работа, проведенная в системе общего среднего образования за годы независимости, состояние школ, решения собрания, проведенного Департамент был проанализирован.

В процессе исследования в архивах хранятся Кашкадарьинские областные комитеты (фонд 1), Чирокчинский райком (фонд 5), Яккабогский райком (фонд 8), Китобский райком (фонд 17), Нишонский райком (604). администрации Кашкадарьинской области, -фонд), Мубаракского горкома (фонд 767), администрации Кашкадарьинской области (фонд 829), Гузора районная администрация (фонд 845), Каршинская районная администрация (фонд 846), Каршинская городская администрация (фонд 852), Камашинская районная администрация (фонд 850), Касонская районная администрация (фонд 851), Чирокчинская районная администрация (фонд 853), Шахрисабзская районная администрация (фонд 856), администрация Яккабогского района (фонд 857), Мубарак  
Весьма ценные сведения были получены из документов, хранящихся в управлении районной администрации (фонд 858), администрации Нишанского района (фонд 859), администрации Китабского района (фонд 860).

Среди документов, хранящихся в архиве Кашкадарьинской областной администрации в фонде 1, протоколы заседаний Кашкадарьинского областного комитета за 1985-1991 годы, документы по здравоохранению, образованию, жилищному строительству, социальным вопросам, положению в сельском хозяйстве районов занимают важное место в изучении проблемы.

Также для освещения исследования были использованы протоколы заседаний и решения обкомов партии за 1985-1991 годы в фондах 5, 8, 17, 604 и 767, хранящиеся в архивах областной администрации.

Кроме того, документы, относящиеся к социально-экономической и культурной сфере, хранились в фондах 829, 845, 846, 850, 851, 852, 853, 856, 857, 858, 859, 860 Кашкадарьинской области и районных органов власти в период независимости имеет важное значение в интерпретации этой проблемы.

**ОБСУЖДЕНИЕ.** В процессе исследования проблемы широко использовались статистические сборники, изданные в разные годы и входящие во вторую группу. В том числе статистический сборник «Населения СССР 1988», изданный в Москве в 1989 году, «Узбекистан в цифрах краткий статистический сборник», изданный в 1995 году, годовые статистические сборники Республики Узбекистан, изданные в 2008, 2014, 2015, 2016, 2018, 2019, 2021 годах, Труд и занятость в Узбекистане в 2016-2019 годах, статистический бюллетень Кашкадарьинской области за январь-декабрь 2021 года, демографические годовые сборники Узбекистана за 2017-2021 годы. В этих статистических сборниках представлены основные социально-экономические показатели региона, демографические показатели населения, рождаемость, смертность и естественный прирост населения, детская смертность и ее причины, вопросы трудовых ресурсов и занятости населения, уровень жизни и доходы населения, населения, дошкольных и общеобразовательных, средних специальных и высших учебных заведений, численность учащихся и студентов в них, основные показатели системы здравоохранения.

Кроме того, в освещении исследования весьма ценная информация использована в опубликованных в 1999-2022 годах социально-экономических паспортах развития Кашкадарьинской области, относящихся к третьей группе. В этих паспортах указывается территориальный состав области, размещение населения области, исполнение местного бюджета, демографическая ситуация, естественное изменение численности населения. Данные о трудовых ресурсах, социальной инфраструктуре, численности занятого в экономике населения, средней заработной плате работников всех отраслей региона, производстве промышленной продукции, весе малого бизнеса в основных отраслях экономики региона, производстве сельскохозяйственной продукции анализировалась впервые.

Также «Социально-экономическое развитие Кашкадарьинской области» опубликовано в издательстве «Узбекистан» в 2016 году. В фундаментальном издании под названием «База данных» исследованы общие сведения по областям и районам, краткая история, численность и состав населения областей и районов, сведения о деятельности, проводимой в социально-экономической сфере.

**РЕЗУЛЬТАТ.** Повседневную жизнь и социальное положение жителей Кашкадарьи. оазис, «Правда Камашы» (Камашинский район), «Восточная звезда», «Касон» (Касонский район), «Новый». Хаёт», «Гузур» (Гузурский район), «Дехханабадский голос» (Дехханабадский район), «Ольга», «Чиракчи» (Чиракчинский район), «Кеш» (Шахрисабзский район), «Авангард» (Яккабо г' ) район, «Славная дорога», «Миришкорский факел» (Миришкорский район), «Победа», «Книжное утро» (Книжный район), «Ленинчи», «Верность» (Профрайон), «Флаг Дружбы», Жизнь Мубарака (Мубарак округа) важные материалы для диссертации были взяты из газет [2].

Полевые этнографические материалы входят в четвертую группу источников, в которой, в основном, представлены данные, полученные автором в результате прямого интервью с информантами почти из всех районов области, и результаты социопроса, полученные от 400 чел. люди, работающие во всех сферах жизни общества, включаются в научный оборот.

Например, *Китабский район, Норов Номоз из села Хазрати Башир Яккабогского района, Норманов Хамза из села Кальта Кул Камашинского района, Номозов Шойим из села Чангакбулок Дехганабадского района, Ибрагимов Зиедулла из села Таркопчугаой Камашинского района, Парадев Абдуджаббар из села Мирзадала, Чиракинский район, Пахтаабат Кадыров Агабек из села, Омониезов Розикул из села Гулистан Косонского района, Ходжамуродов Хусан из села Карлик Гузорского района, Тораханов Ибрагим из села Даштабад, Аликулов Шералилар из села Елабад Миришкорского района . Тохтаев Гувватали из села Сероб Китабского района, Дониеров Джуманазар из села Джилисув Дехканабадского района* об особенностях экономической жизни, состоянии объектов образования и здравоохранения в регионах Яккабогского района, *В интервью с Абдиевым Бойбори из села Окробод Гузорского района, Кулбоевым Шерали из села Даштабад Нишанского района и Эгамбердиевым Музаффарларом из 23 савхозов* зафиксирована в основном информация о трудовой миграции.

Таким образом, важным источником при написании исследовательской работы послужили архивные документы, официальные документы и материалы, статистические сборники, материалы периодической печати, данные устной истории, а также много новой информации, которая еще не известна исследователям. широкой публике, было собрано у большинства из них и введено в научный оборот.

### Литературы и ссылки

1. ЎЗР МА. 26-фонд, 1-рыхат, 300-иш, 2-варак; 400-й, 2,3-варак, 458-й, 25, 26, 29-вараклар.
2. А. Уроков. Качество образования – главный вопрос. // "Кашкадарьинская правда". 21 июня 1986 г.; Н. Узоков. Формирование доходов населения и способы их использования. // «Кашкадарьинская правда». 13 октября 1992 г.; Ш. Бегматов. Давайте оправдаем доверие народа практической работой. // «Кашкадарьинская правда». 15 июля 1998 г.; А. Гасанов. Забота о здоровье зависит от каждого. // «Кашкадарьинская правда». 17 июня 2005 г.; К. Каримов.
3. Жители Кокбулока научились решать свои проблемы самостоятельно. Но...// «Кашкадарьинская правда». 9 сентября 2005 г.; Д. Кенжаева. Перспективные инвестиции. // «Кашкадарьинская правда». 8 января 2008 г.; Н. Зайнев. Поле уверенности и возможностей расширится еще больше. // «Кашкадарьинская правда». 22 февраля 2008 г.; К. Эргашев. Спорт – это здоровое поколение, здоровое будущее. // «Кашкадарьинская правда». 23 февраля 2016 г.; Ш. Бозорова. Тяжелые времена позади. // «Кашкадарьинская правда». 1 мая 2020 г.; А. Азимов. Удовлетворим нужды народа.// «Пламя коммунизма». 1986. 28 июня; Ш. Амиркулов. Будущее начинается в школе. // «Стабильность». 1 января 1994 г.; М. Уроков. Наша почетная работа. // «За коммунизм». 1989. 12 июня; О. Колдошев. Если ребенок занимается спортом, он будет физически и умственно зрелым. // "Случай". 14 июля 2010 г.; О. Пармонов. Пусть социальная справедливость и прозрачность станут

критериями нашей жизни. // «Новая жизнь». 17 апреля 1990 г.; О, Кошаков. Время проверяет нас. // "Голос Дехханабада". 26 июня 1992 г.; О'. Отаев. Боль людей – моя боль. // "Вперед". 5 апреля 1990 г.; Г. Примов. Человек, который находит счастье в работе. // «Лампа». 24 декабря 2004 г.; Здоровье людей – богатство страны. // «Славная дорога» 7 декабря 1986 г.; С. Усманов. На пути к процветанию. // «Факел Миришкора». 21 апреля 2006 г.; С. Исомиддинов. Тарелки Солим Гоша. // "Победить". 30 августа 1986 г.; А. Тошев. Конференция Долзарба. // «Книжное утро». 7 апреля 2001 г.; М. Мираков. Требование к активной работе. // «Ленинчи». 10 сентября 1989 г.; Т. Саидов. Независимые загородные застройщики. // "Верность". 2005 год. 27 мая; Обладатели почетных профессий. // «Флаг Дружбы». 16 июня 1990 г.; Символ процветания. // «Благословенная жизнь». 10 февраля 2007 г.; Ф. Холмирзаев. Готов проект реконструкции сада. // «Благословенная жизнь». 11 июня 2010 г.

### Архив администрации Кашкадарьинской области

4. 5-й фонд Чиракчинского райкома
5. 8-й фонд Яккабогского райкома
6. 17-й Окружной комитет Книжного Фонда
7. 604-Жамгарма Нишанский райком
8. 767-й фонд Мубараковского горкома
9. 829-жамгарма акимата Кашкадарьинской области
10. 845-джамгарма Гузарского районного управления
11. 846-джамгарма Каршинской районной администрации
12. 850-жамгарма Камашинской районной администрации
13. 851-джамгара администрации Касонского района
14. 853-джамгарма Чирокчинский районный акимат
15. 857-джамгарма администрации Яккабогского района
16. 858-Акимат Джамгарма-Мубарака
17. 859-джамгарма администрации Нишанского района
18. Фонд 860 Администрация Китабского района
19. Фонд 614 - Благотворительный фонд микрорайона Узбекистана, Кашкадарьинское райотдел
20. 687-Кашкадарьинское областное управление по делам культуры Министерства культуры Республики Узбекистан
21. «Народное слово».
22. «Кашкадарьинская правда» (губернское издание).
5. «Пламя коммунизма», «Истикбол», «Лайк» (Каршинский район).
6. «За коммунизм», «Правда Камаша» (Камашинский район).
7. «Восточная звезда», «Касон» (Касонский район).
23. 7 «Новая жизнь», «Гузур» (Гузурский район).
8. «Голос Дехханабада» (Дехханабадский район).
9. «Ольга», «Чиракчи» (Чиракчинский район).
10. «Кеш» (Шахрисабзский район).
11. «Авангард» (Яккабо г') район.
12. «Славная дорога», «Миришкорский факел» (Миришкорский район)е
13. «Победа», «Книжное утро» (Книжный район)е

24. 14 «Ленинчи», «Садокат» (Касбинский район)е
25. 15. «Флаг дружбы», жизнь Мубарака (Мубарак округ).

